

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: ME'YOR HODISASINING LINGVISTIK
TUSHUNCHA EKANLIGI**

Bajaruvchi:

S.Maftuna

NAVOIY-2015

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir davr, ijtimoiy tuzum insoniyat oldiga u yashab turgan hayotni real idrok qilish, mavjud ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma'naviy salohiyatdan yangicha, o'z istiqboli manfaatlaridan kelib chiqib foydalanish, turlicha mazmundagi an'analarni zamon talablariga moslab isloh qilish masalalarini ko'ndalang qilib qo'yadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ona tilimiz – o'zbek tilini yanada rivojlantirish va kamol toptirish haqida doimo qayg'urib keladi. Uning quyidagi fikrlari buning yorqin isbotidir: “Biz avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanilishi darajasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir”¹.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, uni o'rganish va xalqqa yetkazib berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi².

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayonida ham e'tiborga olinishi lozim. Garchi bu fanni o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til materiali doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan yuz bersa-da, tilning sosiolingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 – B. 87.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari: ma'naviy qadriyatlar va milliy mulkni anglashning tiklanishi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 254 b.

dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog'liq.

Negaki, ko'p asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos ravishda o'rganish barchamiz uchun zarurdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til me'yorining adabiy tilga munosabati haqida mulohaza yuritishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, dastlab tilimizning ana shu boyib borish yo'llariga, taraqqiyot davrlariga, qisqacha bo'lsa-da, ko'z yugurtirish lozim bo'ladi.

Ushbu masalaga qiziqish qadimgi davrlardayoq, hatto XI asrdan – M.Koshg'ariy zamonidan boshlanganligini olimlarimiz e'tirof etishadi. Ammo bu qiziqish va tilimiz taraqqiyot bosqichlarini davrlashtirish hamda uning mukammal tasnifi bilan shug'ullanish XIX asrdan boshlangan.

Turkiy tillarni davrlashtirish bo'yicha V.V. Radlov, A.N.Samoylovich, S.Ye.Malov, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.R.Reshetov, N.A. Baskakov, V.A. Bagorodiskiy kabi rus turkiyshunos olimlarining xizmatlari katta bo'lgan. Keyinchalik, ularning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda o'zbek tili tarixini davrlashtirish masalasi ham kun tartibiga qo'yilgan. Bu borada Tesha Salimov, Faxri Kamolov, A.M.Shcherbak, Olim Usmonov, G'ani Abdurahmonov, Shamsiddin Shukurov, Ergash Fozilov, Fattoh Abdullayevlar o'z qarashlarini bayon qilishgan.

Bu qarashlar bir qadar batafsil tahlil qilingan va umumlashtirilgan ilmiy manbalar o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishning eng keyingi yutuqlarini mujassam qilgan, darslik va qo'llanma sifatida tavsiya etilgan U.Tursunov,

B.O'rinboyev, A.Aliyev hamda A.Muxtorov, U.Sanaqulovlarning asarlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ma'qsad va vazifalari. O'zbek tilining fonetik, lug'at boyligi, grammatik sathlarida yuz bergan me'yoriy o'zgarishlar haqidagi bilimlarni o'rganib, tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagi maqsad asosida quyidagi vazifalar belgilandi:

- adabiy me'yor, uning umumiy va xususiy ko'rinishlari, uning yuzaga kelishi, qoidalashtirilishi, yozuvda mustahkamlanishi, namunaviyligi, umummajburiyligi va boshqa belgilari o'rganish;

- o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari asosida hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davr orasida yuz bergan o'zgarishlarga tayangan holda turli sathlardagi me'yoriy o'zgarishlarni aniqlash;

- o'zbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek adabiy tili bosqichlaridagi unlilar tizimida ro'y bergan miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar misolida har bir bosqichdagi fonetik-fonologik me'yorlarni asoslash;

- o'zbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek adabiy tili bosqichlarida undoshlar tizimida ro'y bergan miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar asosida har bir bosqichdagi fonetik – fonologik me'yorlarni tavsiflash;

- o'zbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek adabiy tili bosqichlarida morfologik sathda ro'y bergan o'zgarishlar asosida har bir bosqichga xos miqdoriy va sifatiy me'yoriy o'zgarishlarni qayd etish;

- o'zbek tili lug'at boyligidagi o'zgarishlarga asoslangan holda har bir bosqichdagi leksik me'yoriy taraqqiyotni, xususan, turkiy qatlam, o'zbekcha qatlam, o'zlashma qatlam so'zlari bilan boyishi ta'sirida so'z qo'llashdagi me'yoriy o'zgarishlarni tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Tildagi me'yor masalasini anglab olishga qarab borayotgan ekanmiz, tilning amalda bo'lish jarayonidagi yana bir muhim jihatga e'tibor qilishimiz zaruriyati tug'iladi. O'z shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo'l va muddatni o'taydigan til ana shu jarayonda, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, takomillashib ham boradi. Bu holni uning ichki qurilishida, amalda bo'lish qoidalarining ma'lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz. «Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir»¹.

Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Tadqiqot kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

¹ Sodiqov A., Abdurazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981, 20-bet

I BOB

ME'YOR HODISASINING LINGVISTIK TUSHUNCHA EKANLIGI

1.1. Til va nutqning ijtimoiy hodisa ekanligi.

Tabiiyki, inson tabiat va jamiyat mahsuli sifatida ularning qurshovida yashaydi. Ayni paytda, ularning oliy mahsuli ham sanalib, ana shu qurshovni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda material hisoblangan tilning ahamiyatini hyech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ham til tafakkur quroli deb bejiz aytilmaydi. «Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi»¹.

Tilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishini, moddiy asos sifatida xizmat qilishini hali birinchi bosqich deyishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichda esa fikrlash natijasida, tafakkur mahsuli reallashmog'i, ya'ni fikrlash markazi bo'lgan miyadan tashqariga chiqishi lozim. Bunda esa tilga bo'lgan ehtiyojning ikkinchi bosqichi boshlanadi - u kommunikativ vazifani bajarishga kirishadi.

Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning turli tillarda turlicha nomlanishidan qat'iy nazar, mana shu jarayonda u insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro ijtimoiy munosabat - muomala vositasi, materiali bo'lib qolaveradi. Ammo til muomala vositasiga aylandimi, uning tabiiy ravishda imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi.

Bu holni uchinchi bosqich deb atash mumkin. Bosqichlar soni ortib boravergani sari tilning ijtimoiylik imkoniyati ham tobora kengayishi ma'lum bo'lib qoladi. Ya'ni, inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani

¹ *Sodiqov A., Abdurazizov A., Irisqulov M.* Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981, 20-bet

bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi. Demak, tilga bo'lgan munosabatda to'rtinchi bosqich yuzaga keladi.

Demak, til insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lishi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar to'g'risida xabar berishdan tashqari suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum ta'sir o'tkazish, hissiyotini qo'zg'atish kuchiga ham ega. Agar bu holatni shartli ravishda beshinchi bosqich deb ataydigan bo'lsak, ta'kidlaganimizdek, tilning bosqichma-bosqich takomillashib, mukammalashib va imkoniyatlari ham asta-sekinlik bilan kengayib borishini kuzatamiz.

Mana shu o'rinda tilning hiech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy jarayonsiz amalga oshmasligi, yuzaga kelmasligiga amin bo'lamiz. «Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi ¹.

Ma'lum bo'ladiki, til nutqning o'ta muhim unsuri sifatida aloqa, xabar, ta'sir etishdek, shu bilan birga, imkoniyatlari nihoyatda kengayib borishi natijasi o'laroq kishilik jamiyati to'plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishdek ulug'vor ijtimoiy vazifani bajaradi.

O'z shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo'l va muddatni o'taydigan til ana shu jarayonda, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, takomillashib ham boradi. Bu holni uning ichki qurilishida, amalda bo'lish qoidalarining ma'lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz. «Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir»².

Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini taniqli tilshunos olimlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar sistem tilshunoslik «til-me'yor-nutq» tarzida ajratishini ta'kidlashib, qayd qiladilarki, «Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi

¹ Xayrullayev M., Haqbyerdiyev M. Mantiq. – Toshkent, 1993, 31-bet

² Sodiqov A., Abdurazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981, 20-bet

uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqish, voqyelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir.

Me'yor (norma) - til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir»¹.

Til va nutq tizimida me'yor ham o'z o'rniga ega. Binobarin, til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan uni me'yorlashtirish jamoa, jamiyat ehtiyojiga aylangan, me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Mana shu o'rinda yuqorida nomlari tilga olingan olimlarimizning quyidagi fikrlarini keltirish muhim: «Me'yor ta'rifida «jamiyat (ijtimoiy) tomonidan belgilangan, aniqlangan qonuniyatlar va imkoniyatlar» tushunchasi mavjud. Bu tushuncha quyidagi izohlarni talab etadi. Birinchidan, tilning moddiy tomoni haqidagi bizning tasavvurimiz nutqda yuzaga chiqar ekan, u qanday shakl va ko'rinishda voqyelanishi jamiyat tomonidan muayyan me'yorlar bilan belgilangan bo'ladi. Masalan, «bu yoqqa kel» tushunchasini imo-ishora bilan ifodalamoqchi bo'lsak, ko'rsatkich barmoqni yoki qo'lni ishora qilinayotgan kishidan o'zimiz tomon harakatlantirishimiz lozim. Og'zaki nutqda esa jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan maxsus tovushlar tizmasi mavjud bo'lib, biz ularni talaffuz etishimiz - aytishimiz shart. Aytilganlarning barchasi me'yorning tarkibiy qismlaridir. Shunga ko'ra til imkoniyatlari me'yor darchasidan o'tib, nutqda yuzaga chiqadi»².

Jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar aholi soni, binobarin, ularning tilga bo'lgan ehtiyoji ham o'sib boraveradi. Bu ehtiyojlarni qondirish zarurati esa o'z navbatida tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi tabiatini, mohiyatini, vazifasini

¹ Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995, 7-bet

² Ne'matov H., Rasulov R. Yuqoridagi asar, 27-bet.

o'rganishni taqozo qiladi, nutq jarayonidagi iste'molda bo'lish xususiyatlarini kuzatishni keltirib chiqaradi. Agar mana shu aytilganlarni boshqacharoq tarzda izohlash mumkin bo'lsa, til va nutq me'yorini o'rganish, tahlil qilish kuzatuvchilarning asosiy muddaosiga aylanib qoladi.

Bunda ma'lum tilning iste'molchisi bo'lgan xalq, bu xalq yashagan va yashab kelayotgan tarixiy sharoit, uning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf odatlari singari qator omillarni ham e'tiborda saqlab turish lozim bo'ladi. Chunki inson faoliyatining muhim qismi sanalgan tilni va uning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini ana shunday qurshovda o'rganishgina atroflicha xulosalar chiqarishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda ana shu tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik aslo mumkin bo'lmaydi. O'z ona tili - barcha o'ziga xosligi bilan shakllangan tili bo'lgani uchun ham u millat sanaladi. Shunday ekan til tarixini, uning me'yoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, ko'lamini millat tarixidan ajratib olib o'rganib bo'lmaydi.

Ana shu ma'noda me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Inson tafakkurining borliqni idrok etishi juda murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon ekanligi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning tilda tegishli atamalar bilan nomlanishi insonning fikrlash jarayonida ko'maklashishi barchamizga ayon. Bir xil predmet, narsa va hodisaning turli tillarda turlicha nom olishi esa tilning ijtimoiy-tarixiy-milliy hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu nomlanishlarning har bir holatda o'ziga xos tarzda me'yor ekanligini ham ko'rsatib turadi.

Bundan tashqari, tildan foydalanishdagi tarixiy jarayon shuni isbotlaydiki, ma'lum bir tilda bir tushunchani ifoda etadigan so'z mavjud bo'lishi bilan birga uning boshqa bir tildan o'zlashtirilgan mustaqil varianti ham baravar ishlatilib kelinadi. Hatto davrlar o'tib, ular o'zaro sinonimik nozikliklardan ham judo bo'lib qolishi, bab-baravar lingvistik qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bu holatni ham tildagi me'yoriy qonuniyat sifatida qabul qilishga majbur bo'lamiz.

Millatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, hamkorliklar til birliklaridan shu tarzda foydalanishni keltirib chiqarganligi tushunarli. Mavjud til me'yorlarining ana shunday sabablar bilan o'zgarishi, o'z navbatida yangicha bir me'yorlarning yuzaga kelishi uzoq davom etadigan jarayondir.

Demak, tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishini ham tarixiy jarayon sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi. Shu o'rinda A.Berdialiyevning «So'z va atamalar hosil qilishning ba'zi nazariy masalalariga doir» nomli maqolasida keltirilgan ayrim misollardan foydalanamiz: «...ma'nodoshlik paradigmalarida muqobil «eshdosh» (a'zo)lar sanaluvchi *mehnat*, *mashaqqat* so'zlari XI asr o'zbek tilida *ko'k* (*kok*) shaklida ishlatilgan. *Uy*, *xona* hamda turmushga chiqmagan *qiz* so'zlari *ev* shaklida ham uchragan. *Yaxshilik*, *ezgulik* ma'nolaridagi lisoniy birlik *aaz* shaklida qo'llangan.¹

Bu kabi davriy me'yoriy o'zgarishlarni tildagi har bir me'yoriy jarayonga tatbiq etish to'g'ri bo'lmaydi, albatta. Me'yor o'zgarishidagi har qaysi aniq holat alohida tahlil qilinishi va ana shu asosda umumiy nazariy xulosa chiqarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Anglashiladiki, til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas «... nutq madaniyati problemasining o'rganilishi ... ikki aspektga ega deyish mumkin: birinchisi, o'zbek adabiy tili normalarini, imkoniyat doiralarini yanada silliqlash, stabillash bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati problemalari; ikkinchisi esa o'zbek adabiy tilidan bu tilda gapiruvchi jamiyat a'zolarining (hatto konkret shaxslarning) to'g'ri, izchil hamda namunali foydalana olishlari uchun yordamlashishi bilan aloqador bo'lgan nutq madaniyati problemalari»².

¹ Berdialiyev A. So'z va atamalar hosil qilishning ba'zi nazariy masalalariga doir // «Davlat tili haqida»gi Qonunni amalga oshirishning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari. – Navoiy, 1993, 23-bet.

² Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent: Fan, 1973, 168-bet.

Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, fikrimizcha, bir narsa ma'lum - tilning amalda bo'lish holatlariga tazyiq o'tkazib bo'lmaydi. Lekin tegishli yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar berilib borilishi zarur. Bu me'yoriy tavsiyalarning qanchalik hayotiy ekanligini esa amaldagi nutqiy jarayonning o'zi belgilaydi. Ikkinchidan, ana shu me'yoriy hujjatlarsiz, yo'l-yo'riqlarsiz ham til va nutq rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. Qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonun buni yaqqol isbotladi.

Yillar davomida olib borilgan yoki olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida til elementlarida qanday mazmuniy va shakliy imkoniyatlar mavjudligi sinxronik va diaxronik yo'nalishda, matniy jihatdan tahlil qilinadi, lingvistik imkoniyatlari ochib beriladi va ulardan nutq jarayonida foydalanish yo'llari tavsiya qilinadi. Ma'lum ma'noda bu ham ularning me'yorni belgilash va til birliklarining ishlatilishiga oid tavsiyalar berish degan gapdir.

1.2. Adabiy til va adabiy me'yor

Necha asrlar davomida sayqal topib, silliqlashib, mukammalashib, bugungi holatga kelgan o'zbek adabiy tili xalqimizning umumxalq tili negizida shakllangan va taraqqiy topgan. Turkiy tillar tizimi va oltoy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek tili hozirgi holatga kelgunga qadar uzoq taraxiy taraqqiyot davrini boshidan kechirganligi ma'lum.

Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining boyib borishida ham ichki va tashqi omillarning ta'siri katta. «O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan asosiy leksik qismini shu tilning taraqqiyoti prosessida uning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun-qoidalari asosida hosil etilgan yasama so'zlar tashkil etadi»¹

¹ Sh o a b d u r a h m o n o v Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980, 121-bet.

Binobarin, yangi so'zlar yasallishining yoki mavjud so'zlarning yangi-yangi ma'nolar anglatishining o'zbek tilida imkoniyatlari kengdir.

Shu bilan birga, tilimizdagi leksik birliklar juda oz bo'lsa-da, grammatik vositalar orasida tashqaridan olingan, jumladan, hindcha, yunoncha, arabcha, mo'g'ulcha, forsha-tojikcha, ruscha-baynalmilal birliklar uchraydi. Bu xalqimizning o'tgan juda ko'p asrlik davr mobaynida boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqadorlikda bo'lganligi, buning ustiga, ayrim davlatlar va ularning boshliqlarining O'rta Osiyo hududida olib borgan bosqinchilik urushlari va harakatlari bilan bog'liq.

Ma'lum til birligining jamoa o'rtasidagi ma'lum shakl va holatda ko'p iste'molda bo'lishi me'yoriy ko'rinishlarning turg'unlik kasb etishiga asos bo'ldi. Tilda yuz, balki ming yillab davom etgan differensiasiya - ajralish, tarqalish jarayoni bu me'yorning ma'lum bir til doirasida bir yo'nalishda umumtil-adabiy, ikkinchi bir yo'nalishida esa umumxalq tilining tarkibiy qismi bo'lgan dialekt va shevalar ham mahalliylik shaklida mustahkamlanib borishiga olib keldi.

Tabiiyki, jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar til, jumladan o'zbek tili ham rivojlanib, mukammallashib, ilmiy jihatdan o'rganilib borildi. Natijada uning barcha tarmoqlarida me'yoriy tomonlar anchagina barqarorlashdi. Bu yerda ham til me'yorlarining mustahkamlanishida nutq jarayonining katta ahamiyat kasb etganini esdan chiqarmagan holda, uning taraqqiyoti tobora ongli boshqarila borganligini, tilshunoslik ilmining ta'siri sezilarli darajada kengayganligini kuzatish qiyin emas.

Barcha tildan foydalanuvchilar uchun me'yoriy holatlarning majburiy ekanligi tayin gap. Shuning uchun ham mustaqillik va faqat mustaqillik sharofati bilan yaqin paytlarda og'izda «shaklan milliy, mazmunan socialistik» deb atalgan, aslida o'shanda ham ko'pchiligimizga ko'zda tutilgan maqsadi ayon bo'lgan mafkuradan butunlay qutulib, o'z milliy mafkuramizni, istiqlol g'oyamizni shakllantira borayotgan paytimizda ona tilimizga bo'lgan munosabatimizni ham milliy manfaatlarimizga mos keladigan yangicha qarash

asosiga qurmog'imiz shartdir. Zero, til tarbiyasi ham millat tarbiyasining tarkibiy qismi sanaladi. Shu o'rinda buyuk Abdulla Avloniyning asrimiz boshlarida aytgan quyidagi so'zlari beixtiyor esga keladi: «Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir»¹

Darhaqiqat, Avloniyning «o'qish, o'qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur» degan fikri o'z zamoni uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir.

Prof. E.Begmatovning «Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi» maqolasida e'tiborli bir fakt keltirilgan. «Sovetskaya Rossiya» gazetasining 1965 yil 31 yanvar sonida yozilishicha, bir vaqtlar rus tilining «g'amxo'rlari» rus tilida to'g'ri gapirishni yo'lga qo'yish maqsadida «filologik milisiyalar», «rus tili o'qituvchilaridan tuzilgan ixtiyoriy drujinachilar» tashkil qilishni, shuningdek, noto'g'ri qo'llangan so'z uchun ma'muriy usulda jarimalar undirilishini taklif qilishgan².

Ammo qanday yo'l tutilsa, adabiy til me'yorlari saqlab qolinadi va ularga amal qilinadi, degan mazmunda bosh qotirish, bu vazifaning yo'llarini topishga harakat qilish esa e'tiborga molik.

Adabiy til haqida, uning me'yoriy qoidalariga amal qilishi haqida qayg'urish nafaqat filologlarning, balki millatning har bir vakilining, o'zbek tilini hurmatlaydigan har bir olijanob insonning vazifasiga aylanadi.

Til va nutqning og'zaki shakli vaqt nuqtai nazaridan yozma nutqqa qaraganda ancha ilgari paydo bo'lganligi, undagi me'yorlashish jarayonining stixiyali tarzda kechganligini ta'kidlash joiz. Buning ustiga o'zbek tilidagi dialekt va shevalarning ko'pligi, ularning bir-biridan ba'zan jiddiy farq qilishi tilning og'zaki me'yori haqida mulohaza bildirishni nihoyatda chigallashtiradi.

¹ O'zbek adabiyoti, 11 sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1997, 37-bet.

² Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent, 1973, 156-bet.

Zero, tilimizning me'yori buzilishidagi asosiy kamchilik xuddi ana shu og'zaki ko'rinishda ko'p sodir bo'ladi va ularni bartaraf etish ham qiyin kechadi.

Inson muomalasida, o'zaro fikr almashish jarayonida yozuv degan bir nodir ne'matning paydo bo'lishi kishilik jamiyati uchun buyuk inqilob bo'lgani aniq. Bu jarayon juda qadimdan o'z yozuviga ega bo'lgan turkiy ayrim xalqlar, jumladan o'zbek tili uchun ham tegishlidir. Yuqorida bir necha bor ta'kidlaganimizdek, me'yor adabiy tilning asosini tashkil qilar ekan, u milliy adabiy tilni ta'riflashda (ham) markaziy tushuncha bo'lib, xuddi ana shu asosiy belgi yangi davrda misli ko'rilmagan darajada rivojlanadi va adabiy tilning yozma turida yuzaga kelib rivojlanayotgan birlik uning og'zaki turiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa adabiy tilning orfoepik normasini ixchamlashtiradi va borgan sari uning adabiy tilning yozma turiga yaqinlashuvida markazlashtiruvchi rol o'ynaydi.

Hozirgi davrda bizga tilimizning me'yorini belgilab beruvchi, ularni o'zlashtirib olishimizga, ko'nikma hosil qilishga yordam beruvchi ommaviy axborot, badiiy adabiyot singari kuchli vositalar ham borki, ularni, ayniqsa, badiiy adabiyot namunalarini, ana shu ma'noda o'ziga xos ko'zgu deyish mumkin. Chunki ularning tilni qamrash imkoniyatlari boshqa manbalarga nisbatan kengdir.

Shuning uchun ham til va nutq madaniyatidagi haqiqiy ahvolga, vaziyatga baho beruvchi, mavjud kamchiliklarni tanqid qiluvchi, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatuvchi chiqishlar ommaviy axborot vositalari orqali olib borilishi va bu mas'uliyatli vazifani amalga oshiruvchi shu soha xodimlariga, jurnalistlarga, adiblarga tayanib ish ko'rilishi lozim.

Garchi ona tilimiz - hozirgi o'zbek adabiy tilini E.Begmatov ta'kidlagan «o'z normativ sistemalarining yuqori darajada shakllanganligi, takomili va boyligi jihatdan yuksak darajadagi madaniy til» sifatida faxrlanib tilga olsak-da, uni yanada yuksaltirish borasigi ishlar keng ko'lamda, izchillik bilan davom ettirilishi lozim. «Endilikda o'zbek adabiy tilining madaniy normativ imkoniyatlarini o'rganish va bu imkoniyatlardan amaliy nutqda o'rinli va

effektiv ravishda foydalana olish yo'llarini tadqiq qilish, shuningdek, o'zbek adabiy tili normalarini takomillashtirish, ularning yanada stabillashuvi, o'tkirlashuvi hamda rivoji uchun ko'maklashish muhim vazifadir»¹.

Adabiy til umumxalq tilining yashash shakllaridan biri ekan, unga millat uchun nafaqat yagona aloqa vositasi sifatida, shu bilan birga, qalbimizdagi eng nozik his-tuyg'ularni ifoda eta oladigan qimmatbaho boylik sifatida munosabatda bo'lmog'imiz, uning o'sishi, rivojlanishi uchun doimo g'amxo'rlik qilishimiz, parvarishlashimiz zarur bo'ladi. Nutq jarayonida, ayniqsa, so'zlashuv va badiiy ijod jarayonida uning shunday bir imkoniyatlari ochiladiki, biz uni payqashimiz va bir lahza bo'lsa-da, ochilgan bu xazina boyliklaridan lazzatlana va huzurlana olishimiz lozim.

Til uchun belgilab quyilgan me'yoriy holatlar doirasidan chiqib, uning har bir vazifaviy uslub doirasida har bir nutqiy vaziyatda ifoda etayotgan nozik ma'nolarini ilg'ay olish, tahlil qilish va uni turli yo'llar hamda vositalar bilan xalqqa yetkazish til bilimdonlarining burchi va vazifasidir.

Adabiy tilimizning yashovchanligini, obro'sini, martabasini saqlab qolish esa unda belgilangan me'yorlarga qat'iy rioya qilishni taqozo etadi. Chunki zamonlar silsilasida toblangan o'zbek tili, bir tomondan, o'z maromida sayqal topib, silliqlashib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek tilshunosligi ham fan sifatida ko'plab olimlarimizning sa'y harakatlari tufayli o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. U til birliklarining juda ko'p jihatlarini ilmiy asosida me'yorlashtirishga ko'maklashdi. Boshqacha aytganda, bugunga kelib til me'yorlari ilmiy xulosalarga tayanilgan holda ongli boshqarila boshlandi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tilining hozirgi me'yorlarini, mavjud kamchiliklardan ko'z yummagani holda, qat'iy qoida va tartibga solingan, yozuvda mustahkamlangan, namuna bo'la oladigan, uning iste'molchilari uchun tushunarli va ma'qul bo'lgan, ular tomonidan bab-baravar foydalaniladigan, umummajburiy bo'lgan, ma'lum ma'noda turg'unlashgan va barqarorlashgan,

¹ Be g m a t o v E. O'zbek nutqi madaniyati masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1980, № 4, 54-bet.

shu bilan birga, asta sekinlik bilan o'sib, rivojlanib boruvchi, o'zni bilan variantlari ko'payuvchi, uslublararo tarmoqlanib, kengayib boradigan, ayni paytda an'anaviylikni ham saqlab qolishi mumkin bo'lgan me'yorlarga aylandi, deb bimalol ayta olamiz.

O'zbek adabiy tili me'yorlari xususida to'plangan bilim va tajribalarga tayanib yana shuni aytish mumkinki, uning umumiy va konkret ko'rinishlari mavjud. Umumiy tarzda uni og'zaki va yozma nutq me'yorlariga ajratamiz. O'z navbatida, yozma adabiy nutq me'yori, yozma adabiy til me'yori va yozma uslub me'yoriga, og'zaki nutq me'yori og'zaki adabiy til, og'zaki uslub me'yoriga bo'linadi. Konkret tarzda esa, tilimizda leksik - semantik, talaffuz, grafik, punktuasion, fonetik, grammatik, so'z yasalishi, orfografik va uslubiy me'yorlar mavjudligini qayd qilamiz.

1.3. Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari. Imlo va talaffuz me'yorlari

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini hayotga joriy qilish to'g'risida»gi hamda 1995 yil 6 maydagi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunlariga asosan ish ko'rilmogda.

Hozirda ham bu qonunlar amalda. Respublikamizda ta'limning barcha tizimlarida ushbu qonunlarni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida o'qitilmogda.

Yangi o'zbek alifbosiga 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va tutuq belgisi kiritildi hamda bu bilan alifbo tizimi anchagina soddalashtirildi. Bu soddalashtirish ikki tovushni ifoda etuvchi ye, yo, yu, ya singari grafemalarni, ona tilimizga xos bo'lmagan tovush ifodasi - s harfini va - yumshatish belgisini olib tashlash hamda ' - ayrish belgisini ' - tutuq belgisiga almashtirish, shuningdek, ch, sh, ng tovushlarini ifodalovchi harflar birikmasini kiritish evaziga amalga oshirildi.

Shu bilan ancha paytlardan beri alifbomizda, ayniqsa, unlilar tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar borasida bo'lib kelayotgan bahsu munozaralar ma'lum ma'noda yakunlandi.

An'anaviy imlo me'yorlarini saqlab qolgan holda lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bilan ish ko'radigan imlo ham o'z me'yoriy qoidalariga ega va bu me'yorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik me'yori yo'lga qo'yiladi.

Endi orfoepik - talaffuz me'yori va unga hayotda amal qilish to'g'risida. Prof. A.Mamatov quyidagi mulohazalarni bayon qiladi: «Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so'zlashishi, nafaqat ularning o'qimishlilikidan darak beradi, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatlilikini ham ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashi kerak. Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharaflı burchidir»¹

Tilimizdagi orfoepik me'yor va uning nutq madaniyatiga ta'siri borasidagi muammolarning mavjudligi ilmiy adabiyotlarda qayd etib kelinayotgan bo'lsa-da, ularni bartaraf etishning ba'zi yo'llari ko'rsatilayotgan bo'lsa-da, ushbu masalalarning kun tartibiga qo'yilganiga 20-30 yil vaqt o'tganiga qaramasdan, bu vazifa batamom hal qilingan emas.

Ma'lum bo'ladiki, og'zaki nutqning to'laligicha adabiy holatga keltirilishini ta'minlash talaffuz jarayonini me'yorlashtirish bilan bog'liq. Og'zaki nutq ishlatiladigan qaysi soha va yo'nalish bo'lmasin, turli uslublardagi

¹ M a m a t o v A.E. Yosh avlodning nutqiy madaniyatini tarbiyalash xususida // Davlat tili haqidagi qonunni amalga oshirishning dolzarb muammolari mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari. - Navoiy, 1993, 7-bet).

vazifasini belgilash bo'lmasin, barcha o'rinlarda ham til birliklarini bir me'yorga keltirib qo'llash masalasi birinchi o'rinda turadi.

1.4. Leksik me'yor

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birliklar alohida o'rin tutadi va ularning o'ziga xos me'yoriy xususiyatlari mavjud.

Leksik normani ta'riflashda esa adabiy tilning quyidagi belgi va mezonlarini nazarda tutmoq lozim: 1) uning og'zaki va yozma shaklda amalga oshirilishini; 2) territorial va ijtimoiy qo'llanish doirasini; 3) ma'lum milliy tilning boshqa shakllari bilan adabiy til o'rtasidagi munosabatlar masalasini inobatga olish kerak.

Shunday qilib, leksik norma bu og'zaki va yozuv tili oppozitsiyasi doirasida leksik vositalarning turlicha amalga oshirilishi o'rtasidagi munosibliklar, tengliklardir»¹

Demak, tilda asosiy birlik sanalgan so'zning lingvostilistik birlik sifatida, ko'pma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklida bir tushuncha doirasida ma'no anglatish va farqlash imkoniyati tilning boshqa sathlaridagiga qaraganda keng ekan, leksik me'yorlarni belgilash birmuncha qiziqarli va munozarali bo'ladi. Leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yorlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Shuning uchun ham tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik me'yor to'g'risidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Dialektizimlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi. Ayni paytda, bu borada me'yoriy holatlarni belgilovchi o'lchovlar ham mavjud. «O'zbek adabiy tilining orfografiyasi, orfoepiyasi va grammatik qurilishi ma'lum tayanch shevalarga (asosan, Toshkent va Farg'ona shevalariga) asoslangan bo'lsa-da, leksik jihatdan

¹ *M a m a t o v A.E.* Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. - Toshkent, 1991, 117-118-betlar.

esa barcha o'zbek shevalariga asoslangan»ligi qayd etilgan «O'zbek dialektalogiyasi» darsligida ana shu o'lchovlar ko'rsatib o'tilgan. Adabiy til sheva leksikasidan ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan so'zlarni tanlab olishi va uni o'z leksik tarkibiga kiritiladi. (mas., *sigir-siyir-inak; chaqaloq-buvak, tuxum-moyak-yumurta, chumoli-murcha-qarinja-qumurusqa* kabilar) .

Ammo shevalarimizda shunday leksik birliklar mavjudki, ular adabiy tilimizga kirib ulgurmagan yoki shu holicha qolib ketgan.

O'zbek tilidagi ko'p shevalilik sharoitida leksik me'yorlarni belgilashning o'ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Har bir sheva vakilida ma'lum tushunchani ifodalaydigan so'zning tabiiy ravishda o'z shevasidagi variantidan foydalanishga moyillik seziladi. Bu holatni hatto ayrim sheva vakillari bo'lgan shoir va yozuvchilar ijodida ham kuzatish mumkin. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor, albatta. Ijobiy tomoni adibning, ya'ni sheva vakili bo'lgan ijodkorlarning sharofati bilan ma'lum so'z adabiy tilga kirib qolib, me'yorlashishi mumkin. Agar bu birlik ko'pchilik tomonidan qabul qilinmasa, uni endi til leksik me'yorining buzilishi deb qarashga to'g'ri keladi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish ulardan nutqda zaruriyatga ko'ra foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish lozim.

Gap shundaki, varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobshye, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarining o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak bu so'zlar o'zbek tili uchun me'yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatilishini ijobiy hodisa sifatida emas, balki me'yorning buzilishi deb qaralishi va ularni nutqda qo'llamaslik lozim.

Ruscha so'z va iboralarning, sintaktik qurilishlarning tilimizdan juda sekinlik va qiyinchilik bilan chiqib ketayotganini ham tarixiy jarayon sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi.

Bir necha og'iz gap atamalarga tarixiylik, davriylik nuqtai nazaridan munosabat xususida.

Eski o'zbek adabiy tilida o'zaro variant hisoblangan *xidmat* va *xizmat* birliklaridan *xidmat* tarixan eskiroq, ya'ni uning qo'llanilishi XV asrgacha me'yor hisoblanib kelgan va asta-sekinlik bilan u *xizmat* so'ziga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bugungi kunga kelib esa u umuman qo'llanilmaydi.

Demak, variantlar orasidan til birliklarining me'yor sifatida tanlanishi ham tarixiy jarayon bo'lib, ulardan foydalanish yoki foydalanishdan voz kechish tilning yaratuvchisi va iste'molchisi bo'lgan xalq hukmidadir.

«Eski o'zbek yozma manbalarida - ... ko'pgina so'zlar ikki, hatto bir qanchalarining uch-to'rt fonetik variantlarda keng ishlatilganiga duch kelamiz» deb yozadi B.Bafojev va qo'yidagi so'zlarni misol tariqasida keltiradi : *yaproq-yafrog'-yapurg'oq, tuproq-tuprog'-tufrog-tufrog'*.¹ Olim ta'kidlaydiki, «tarixiy leksikologiyada bu lingvistik hodisani obe'ktiv baholashda barcha yozma manbalar tilidagi har bir variant qaytariqlari bilan olib chiqilishi kerak». Bu gaplar to'g'ri, albatta. Shunday qilinganda bu kabi elementlarning adabiy tildagi yoki badiiy uslubdagi qo'llanish chastotasi va vazifaviy chegaralanishini aniqlash, ularning bu jabhalardagi me'yoriy holatlarini belgilashga imkon beradi. Harqalay, *yaproq* ning *yafrog'*, *yapurg'oq* va *tuproq* ning *tuprog'*, *tufrog*, *tufrog'* tarzida badiiy, ayniqsa poetik nutqda ishlatilishi matnning ohangdorli va musiqaviyligini, vazn va hatto qofiya singari an'anaviy qoidalarga bog'liqligini ham yodga keltirishimiz zarurati tug'iladi.

¹ B a f o j e v B. O'zbek tili tarixida leksik norma masalalari // O'zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari. Jumhuriyat ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalarining qisqacha bayoni. – Toshkent, 1990, 17-18-betlar.

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan respublikamiz miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilimiz taraqqiyotiga, xususan uning terminologik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

«Davlat tili haqida» gi Qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o'tkazish, ularni «o'zbekchallashtirish» ga imkoniyat yaratildi.

Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni «milliylashtirish» ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Bu gapning tasdig'i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: *matematika-riyoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon-mushtariy, auditoriya-saboqxona, xona, o'quv xonasi, sirk-tomoshaxona, , seyf-zarf, attestasiya-ko'rik, samolyot- aeroplan, tayyora, aeroport-tayyoragoh, klub-da'vatxona, titul list-sarvaraq* va hokazo.

Bu kabi tavsiyalar mustaqillikdan keyin - «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilingach, o'rtaga tashlandi. Ona tilimizning chin fidoyilari erksevar va millatsevar jadidlar tomonidan esa shu mazmundagi mulohazalar asrimizning boshlarida, mustamlakachilik paytlaridayoq o'rtaga tashlanganligi tarixdan ma'lum.

Ulug' ma'rifatparvar Fitrat 1921 yildagi til, imlo qurultoyida kontrevolsion «Chig'atoy gurungi» tashkilotining dasturini bayon etib, o'zbek tilidan yot so'zlar (arabcha, forsha, ruscha) ni chiqarib tashlasak, buyuk idealimiz bo'lgan turkchilikka birlashamiz, deb ochiq-oydin aytdi.

Ular ko'plab qadimiy so'zlarni tiriltirishni, o'zbek adabiy tiliga qabul qilishni tavsiya qildilar. Masalan, arabcha *zaxmat, xalq, duo, nasihat, rais, olam, kitob, maktub* so'zlari o'rniga *emgak, el, olqish, o'gut, boshliq, ochun, bitik, yozoq so'zlarini*, forsha *shahar, guvoh, tajriba* so'zlari o'rniga *baliq, taniq, sipok* so'zlarini, ruscha *parovoz, poyezd, revolyusiya, proletar, samovar, pochta, agronom, elektr, geografiya, botanika, astronomiya, morfologiya, sintaksis* kabi so'zlar o'rniga *o'txona, otash arava, o'zgarish, yo'qsil, o'zi qaynar,*

choparxona, ekin bilg'ich, simchiroq, yer biligi, o'simlik biligi, yulduz biligi, sarf, nahv kabi so'z va iboralarni ishlatishni ko'tarib chiqdilar ¹.

Bu qarashlar shu ma'noda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash, umumturkiy birliklarni adabiy til me'yori sifatida belgilash g'oyasi yotadi.

Tilimizda qo'llanilib kelinayotgan *avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya, inspektor, intelligent, kontrol, komandirovka, komanirovochnaya, leksiya, ministr, oblast, ostanovka, planeta, problema, rayon, raport, redaktor, revolyusiya, spravka, student, sekretar, tema, territoriya, tradisiya, forma* singari so'zlar o'rnini *muallif, me'mor, insonparvarlik, ma'ruza, mafkura, nozir, ziyoli, nazorat, safar, safarnoma, ma'ruza, vazir, viloyat, bekat, sayyora, muammo, tuman, bildirishnoma /xabarnoma, muharrir, inqilob, ma'lumot/ma'lumotnoma, talaba, kotib /kotiba, mavzu, hudud, an'ana, shakl* kabi tavsiya etilgan so'zlar osonlik bilan egalladi. Buning sababi shu bo'ldiki, ular dubletlar sifatida tilimizda ozmi-ko'pmi oldindan ham qo'llanilib kelinayotgan edi.

Ko'pgina misollar tahlili atamalar, nomlanishlar turg'unligi murakkab masala ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq tasarrufida ekanligida, rus tilining Ittifoq hududidagi boshqa tillarga ta'siri kuchli bo'lgan paytlarda biz hyech bir ikkilanmasdan *respublika, oblast, rayon, avtor, agitasiya, propaganda, ideya, plan, forma, prosent, proses, komandirovka, raport, spravka, student, sekretar, ministr* kabi ko'plab so'zlarni, garchi ularning tilimizda (oldin qaysi tildan qabul qilingan bo'lishidan qat'iy nazar) muqobil variantlari bo'lsa-da, ishlataverar edik. Vatanimizning mustaqillikka erishishi munosabati bilan tabiiy ravishda bu so'zlarga jamoatchilik tomonidan munosabat bildirildi. *Jumhuriyat, viloyat, tuman, muallif, tashviqot, targ'ibot,*

¹ *Tursunov U., O'rinboev B.* O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1982, 155-bet

g'oya, reja, shakl, foiz, jarayon, safar, bildirishnoma, ma'lumotnoma, talaba, kotib(a), vazir, nozir, nazorat kabi muqobil variantlari ham 90-yillar boshlaridan ular bilan bab-baravar qo'llanila boshlandi va bu parallellik tilimizda me'yor sifatida ma'lum muddat saqlanib turdi.

Endi oradan o'n yildan ko'proq vaqt o'tgach, butunlay boshqa manzara kuzatiladi. Bu o'tgan vaqt orasida birinchi guruh so'zlar asosan ikkinchi guruh so'zlariga o'z o'rnini bo'shatib berdi, deb bemalol ayta olamiz. Nega asosan deb aytayapmiz? Shuning uchunki, saragi sarakka, puchagi puchakka deganlaridek, bu so'zlarning har biri vaqt g'alviridan o'tdi. Ayrimlari hozir ham parallel xususiyatini saqlab qoldi: *respublika-jumhuriyat, universitet-dorilfunun* kabi. Ularning semantik-uslubiy ma'nolari aynan bir xil bo'lmagani uchun ham shunday bo'ldi.

Bunday parallel qo'llanishning boshqa sabablari ham bor. Biz tilshunosligimizda *epitet - sifatlash, derivasiya - so'z yasalishi, affiks - qo'shimcha, abbreviatura - qisqartma so'z, anafora - misra boshidagi tovush takrori, antroponimlar - kishi ismlari, toponimlar - joy nomlari, atribut - aniqlovchi, affrikatlar - qorishiq undoshlar, stil - uslub, stilistika - uslubshunoslik* kabi o'nlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatib kelmoqdamiz. Buning boisi atamalarning birinchisi xalqaro termin sifatida barcha tillarda qo'llanilib kelinayotganligidadir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi tavsiya etilayotgan so'zlarning ma'qul kelishi va me'yorlashishi ularni tilda avval qo'llanilib kelayotgan yoki kelmayotganiga ham bog'liq. Boshqacha aytganda, ularni ko'rish va eshitishga odatlanish me'yorlashishga ko'maklashadi.

Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslik ilmida, tilshunoslar va boshqa mutaxassislar faoliyatida, ayniqsa, atamalar bobida tildan foydalanishdagi vaziyatni muvofiqlashtirish, bir xillikni yuzaga keltirish, osonlik va qulaylik yaratish, eng muhimi, tushunarli bo'lishni ta'minlash maqsadida tavsiyalar berib boriladi.

Atamalarni almashtirish va me'yorlashtirishda ro'y berayotgan jarayonlarni tahlil qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin : atamalarning bir qismi tezgina almashdi, me'yorlashdi va ommalashdi, yana bir qismi esa variantlar, dubletlar tarzida baravar ishlatilib kelinmoqda. Atama sifatida tavsiya qilingan birliklarning ma'lum qismi esa tilda o'z o'rnini topmadi, ko'pchilik tomonidan ma'qul ko'rilmadi.

Demak, mustaqillikdan keyingi davr atamalarini me'yorlashtirish xususida gap ketganda ana shu jihatlarning hayotiy ekanligini inobatga olishga to'g'ri keladi.

II BOB

GRAMMATIK ME`YOR

2.1. Morfologik me`yor tushunchasi.

O'zbek tili grammatikasi tilshunoslik sohalari orasida nazariy jihatdan bir muncha yaxshi ishlanganligi, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap qurilishi bir qadar mukammal me'yoriy tavsiyalarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarida tegishli mulohazalar aytilgan¹. Morfologik me'yor haqida fikr yuritilganda gap aslida qo'shimchalar qo'llashning me'yoriy holatlari haqida boradi. Qaysi guruh qo'shimchalari bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'rtasida variantdorlikning, sinonimiyaning mavjudligi nutqda bu qo'shimchalar me'yorlari yoki ularning buzilishlari haqida, ba'zan esa vazifaviy chegaralanishlari xususida mulohaza yuritishga sharoit yaratadi.

Demak morfologik me'yor tushunchasi tilning ana shu qatlamini qamrab oladi va uning atrofida yuritiladigan fikr-mulohazalar har bir so'z turkumi doirasidagi qo'shimchalar hamda ularning nutq jarayonidagi me'yoriy ko'rinishlari, agar ular buzilgan bo'lsa, tuzatish yo'llari haqida bo'ladi.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, o'tib borayotgan vaqt tilga o'z ta'sirini o'tkazmasdan, unda o'z aksini topmasdan qolmaydi. Masalan, XX asrning boshlari O'rta Osiyoga, jumladan, bizning yurtimizga ham g'arbdan sanoat, ishlab chiqarish, savdo, fan va madaniyatga oid yangiliklar shiddat bilan kirib kelgan bir davr edi.

Tilimizda so'z yasash imkoniyatlari kengayib borayotganligi «...boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar va ot yasovchi *-izm, -ist*; sifat yasovchi *-ik*; familiya ko'rsatkichi *-ov, -yeva, -yevna* kabi affikslar, rus tilidan qabul qilingan abbreviatura yo'li bilan ot yasalishi kabilar Oktyabr revolyusiyasining mahsuli bo'lib, 20 va 30 yillarda juda keng avj olgan va o'zbek milliy adabiy

¹ Sh o m a q s u d o v A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 1983, 75-228-betlar

tilining boyishiga, rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan»¹ Yuqorida keltirilgan –
-ist qo'shimchasini misol tariqasida olganimizda, u asta-sekinlik bilan o'z
o'rnini -chi, -navis, -shunos so'z yasovchi qo'shimchalariga bo'shatib
berayotganini ko'zamatamiz: *ocherkist* – *ocherkchi* - *ocherknavis*, *royalist* –
royalchi, *pianist* – *pianinochi*, *romanist* – *romannavis*, *folklorist* –
folklorshunos, *traktorist* – *traktorchi* kabi. Shu qo'shimcha bilan
qo'llaniladigan so'zlarning ko'p qismi esa tilimizdan chiqib bormoqda:
ekonomist – *iqtisodchi*, *reformist* – *islohotchi*, *shovivist* – *millatchi*, *lingvist* –
tilchi - *tilshunos*, *yurist* – *huquqshunos* kabi.

- *chi* qo'shimchasi bilan yasalgan *yamoqchi*, *taroqchi*, *o'roqchi*, *o'qchi*
singari so'zlar hozirda ham shu tarzda ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da,
hunarchi, *dinchi*, *jadidchi*, *chilangarchi* kabi so'zlarda bu qo'llanish davom
etmadi. U *hunarmand*, *dindor*, *jadid*, *chilangar* shaklida me'yorlashdi. Bir
holatda o'zbekcha affiks o'rnini tojikcha – *mand*, ikkinchi holatda – *dor* egallab
oldi. Qolgan misollardagi qo'shimchaning tushib qolishi esa leksik–grammatik
me'yor tarzida turg'unlashdi.

– *chilik* qo'shimchasi me'yorlashuvida ham ayrim o'zgarishlarni sezamiz.
U *paxtachilik*, *g'allachilik*, *dehqonchilik* kabi so'zlarda davom etayotgani holda
ommachilik, *idorachilik* so'zlarida – *viy* qo'shimchasiga o'rnini bo'shatib berdi:
ommaviy, *idoraviy* kabi. O'sha paytlarda arabcha -*iyot* affiksining bir muncha
faolligi seziladi: *muzaffariyot*, *mashg'uliyot*, *ruhiyot*, *nazariyot*. Vaqt o'tishi
bilan so'zlarning bu tarzda yasalishi me'yoriy tasdig'ini topmadi.

Yana bir holatga e'tibor qilaylik. Tilimizga o'zlashgan qisqartma otlarni
o'zlashtirayotgan tilda qanday bo'lsa shu holicha qabul qilish odat tusiga kirgan
edi: *SSSR*, *KPSS*, *VLKSM* kabi. Deyarli barcha vazirliklar, qo'mitalar,
tashkilotlar, korxonalar va muassasalarning nomlari, ayniqsa og'zaki nutqda,
shu tarzda qo'llanaverardi: *minvuz*, *peduchilishye* kabi. Hozirda esa bu kabi
so'zlar qo'llanilishida ijobiy o'zgarishlar aniq sezilib, *oliy ta'lim vazirligi*, ,

¹ *Karimov*. Sovet davri o'zbek adabiy tili taraqqiyoti. – Toshkent : Fan, 1985, 12- bet

pedbilim yurti tarzida keng qo'llanilmoqda va ularning safi kun sayin kengayib bormoqda.

Demak, ijtimoiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar tilning barcha sathlarida bo'lgani kabi morfologik birliklar me'yoriga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buni biz ot so'z turkumining me'yoriy tahlilida yaqqol kuzatamiz.

O'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalashning yo'llaridan biri *-lar* qo'shimchasi ekanligi ma'lum. Shu bilan birga, bu qo'shimchaning ko'plik doirasidan chiqib, asosan ot va fe'llarga qo'shilganda hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, ta'kid, predmetning turi, umumlashtirish, so'zlovchi munosabatini alohida bildirish singari turli xil ma'nolarni ifodalashi uning grammatik-uslubiy imkoniyatlarining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Garchi qo'shimchaning bu kabi ma'nolarni anglatish jarayonidagi so'zlarga qo'shilish tarzi morfologik me'yorning buzilishi sanalsa-da, uni uslubiy me'yorning buzilishi deb bo'lmaydi: *tillar, yuraklar, jigarlar, burunlar, boshlar, suvlar, qonlar, sutlar, saroblar, barglar, yo'qlar, chiriblar* kabi.

Shunday holatlarga ham duch kelamizki, uning ayrim otlarga qo'shilishida guyo morfologik me'yor buzilmaganday ko'rinsa-da, uslubiy me'yorga jiddiy putur yetgani seziladi: *dadamlar keldilar*. *-lar* ning fe'lga qo'shilishining o'ziyoq hurmat ma'nosini bildiradi. Ammo negadir keyingi paytlarda, ayniqsa so'zlashuv nutqda bu qo'shimchani *dada* so'ziga qo'shib ishlatish kuchayib bormoqda. Unga mana bunday holat sabab bo'lishi mumkin: Eshik ochilib, kirib kelgan odamning kimligini bilish maqsadida yangi oila qurgan yigit kelinchagidan: – *Kim keldi?* – deb so'rganida – *Dadamlar...*, – deb javob berishi kabilar. Harqalay, bu o'rinda *-lar* ning hurmat bildirishga nutqiy vaziyat nuqtai nazaridan baho berish to'g'ri bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda «Hurmat ma'nosini ifodalovchi – *lar* alohida affiks deb, son kategoriyasi va egalik kategoriyasi sistemasidan tashqarida turuvchi mustaqil forma deb qaralishi lozim» degan fikrlar ham bor.¹ Kelinchakning yoki boshqa bir farzandning javobida birgina *dadamlar* so'zi ishlatilganda u hurmat

¹ O'zbek tili grammatikasi, 1 tom – Toshkent, 1975, 187- bet.

ma'nosini o'z zimmasiga olar, ammo *dadamlar keldilar* gapidagi *dadamlar* so'zi tarkibidagi *-lar* ga me'yorning va bundan kelib chiqadigan mantiqning buzilishi deb qaralishi to'g'ri bo'ladi. Chunki diqqat qilgan odam *dadamlar* so'zidan gapiruvchining bir necha dadasi borligi ma'nosini tushunishi ham mumkin.

Kelishiklar me'yori borasida gap ketganda nimalarga e'tibor qilishimiz mumkin? Birinchidan, ularning turli variantlari va bu variantlarning vazifaviy uslublar doirasida qo'llanish chegarasiga. Ikkinchidan, bu qo'shimchalarning belgili-belgisiz holatiga. Uchinchidan esa, ularning o'zaro va kelishiklar bilan sinonimiyasiga.

Shu talablar nuqtai nazaridan qaraganda qaratqich kelishigining *-ning* shakli adabiy tilimiz uchun me'yor sifatida qabul qilingan. Uning *-ting*, *-ding*, *-ti*, *-i*, *-ni*, *-nung*, *-dung*, *-ing* shakllari sheva va lahjalar uchun xos bo'lib, adabiy tilda ishlatilishi me'yorning buzilishi sanaladi. So'zlashuv uslubida ham bu buzilishlar sezilib turadi. Ilmiy va rasmiy uslublarda uning adabiy shakliga qat'iy rioya qilinadi. Bu kelishikning badiiy uslubda ishlatilishi esa o'ziga xos tarzda kechadi. Bu uslubda uning quyidagi shakllari qo'llaniladi: *-(i)m* : *Yo rab, yozug'im nedur m a n i m* (*O.Yoqubov*), *Nega m ye n i m qulog'imda tun va kun / Boyqushlarning shumli tovshi baqirar* (*Cho'lpon*), *-n* : *Qanday ko'rkam qizlar a v l o d i n / Hassos didi va shoir dili* (*Zulfiya*), *-ing* : *K o'ng um in g mahzani gul orazi gulnora fido* (*Joniy*) kabi. Bundan tashqari she'riyatda qaratqich-qaralmish birikmaning *seli ashkim, kamolingda sening* tarzida inversiyaga uchrab qo'llanilishi ham shu uslub uchun me'yor sanaladi. Ko'rinadiki, bu qo'shimchaning bir uslub uchun xos bo'lgan, me'yor sanalgan shakli boshqa bir uslubda g'aliz, g'ayriodatiy bo'lishi mumkin.

Qaratqich kelishigi nutqda ba'zan belgisiz qo'llaniladi, tarixan ham shunday bo'lgan¹. Barcha uslublarda ham belgili-belgisiz tarzida qo'llanaveradi. Ammo bunday qo'llanishni hamma nutqiy holatlarda ham bir xil qabul qilish, me'yor sifatida belgilash to'g'ri bo'lmaydi. *Universitet xiyoboni, Samarqand*

¹ *Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.* - Toshkent, 2002, 36-bet

universiteti, Navoiy ko'chasi, ziyolilar uyi, shoirlar bog'i qurilmalarida shunday ham qarashlilik anglashilib turgan bo'lsa-da, ularni *universitetning xiyoboni, Samarqandning universiteti, Navoiyning ko'chasi, ziyolilarning uyi, shoirlarning bog'i* tarzida qo'llash grammatik me'yorning emas, balki nutqiy me'yorning buzilishiga olib keladi, tegishlilik bir qadar g'aliz ifoda etiladi.

Aksincha, boshqa bir holatlarda ularni belgisiz qo'llab bo'lmaydi. Masalan: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi* qurilmalarini *men kitobim, sen kitobing, u kitobi* tarzida shakllantirish mumkin emas.

Nutqda, uyushiq bo'laklar tarkibida bu kelishikning o'rni alohida bo'lishi mumkin. «O'zbek tili stilistikasi» darsligida shunday yozilgan: «uyushiq bo'laklarning qachon qaysi birini belgili, qaysi birini belgisiz ishlatishni bilish kerak. Chunki buni bilmaslik ma'noga, aytilmoqchi bo'lgan fikrning aniqligi va konkretligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, *Tohir, Salim va Odilning otasi keldi* gapini bir necha xil tushunish mumkin. Ya'ni ota bitta bo'lib, Tohir va Salim bilan birga kelgan bo'lishi (birgina ota) yoki har uchala bolaning otasi kelgan bo'lishi mumkin»¹.

Tildan foydalanishda esa ikki xillilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ifoda etilayotgan fikr aniq va ravon, tushunarli bo'lishi uchun ham me'yorga ehtiyoj bor. Shunday ekan yuqoridagi misolda kelishikning qo'llanishida nutqiy me'yor buzilgan. Variantlar qo'yidagicha bo'lishi mumkin: 1. *Tohir va Salim bilan Odilning otasi keldi*. Aslida gapda har uchala bolaning otasi kelganligi nazarda tutilayotgan bo'lishi kerak. Unda: a) *Tohirning, Salimning va Odilning otasi keldi* yoki b) *Tohir, Salim va Odilning otasi kelishdi* (bunda – **ish** birgalikni ifodalovchi affiks ko'plik ma'nosini ham anglatadi.) v) *Tohir, Salim va Odilning otalari keldi*. (ularning uch kishi ekanligini bildirishni –lar qo'shimchasi o'z zimmasiga oladi.) g) *Tohir, Salim va Odilning otalari kelishdi* (–lar va –ish birgalikda uch kishi ekanligini yana ham asoslaydi). Eng ishonchli variant: *Tohirning, Salimning va Odilning otalari kelishdi*. Ammo bu variant yozma nutq me'yoriga xos bo'lib, og'zaki nutqda ko'proq yuqoridagi variantlar

¹ Sh o m a q s u d o v A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi – T., 1983, 81- bet

qo'llanilishi mumkin. Nutqiy vaziyat esa fikrning aniq reallashuviga ko'maklashadi.

Bu singari farqlamaslik tilimizda, ayniqsa og'zaki nutqda hozir ham davom etmoqda. Aslida esa ular ma'nosiga ko'ra ham, vazifasiga ko'ra ham bir-birlaridan jiddiy farqlanadi. Qiyoslaylik: *Direktorni kabinetida ko'rdim* – *Direktorning kabinetida ko'rdim*. Ikkala gap ham kimni ko'rganlik haqidagi so'roqqa javob bo'ladi, ammo aynan ana shu *-ni* va *-ning* qo'shimchalarining farqlanishi natijasida ikki xil ma'no anglashiladi. Birinchi misoldan direktorning o'zini, ikkinchi misoldan esa boshqa bir kishini ko'rganlik tushuniladi. Shu sababli ham ularni bir-birdan farqlamasdan qo'llashni me'yorning buzilishi deb tushunilsa to'g'ri bo'ladi.

Tushum kelishigi qo'shimchasi *-ni* ning qo'llanish doirasi ancha keng bo'lgan. Hozirgi adabiy tilimiz materiallari tushum kelishigini qo'llashdagi bu nomuvofiqliklar barham topib, ba'zi hollarda qaratqich kelishigi bilan farqlanmasdan ishlatilayotganligini e'tiborga olmaganda, *-ni* shaklida me'yorlashganini kuzatamiz.

Vazifaviy uslublar nuqtai nazaridan qaraganda uning – *(i)n* shakli adabiy asar tilida me'yorlashgan va qo'llanishi badiiyat talabiga ko'ra nihoyatda faol : *Erka malak achchig'lanmam senga / Uchirsang-da ko'kka yurak k u- l i n / Achchig'lanmam senga nozli qo'yosh, / Yondirsang-da umidimning g u l i n* (Fitrat). Qolgan uslublarda adabiy me'yorlashgan shaklda, masalan so'zlashuv uslubida ba'zan *non yedim, miltiq otdim* kabi belgisiz qo'llaniladi.

Bu kelishik belgili-belgisiz qo'llanishining o'zbek tilida shunday me'yoriy holatlari vujudga kelganki, ularning birini ikkinchisi bilan mazmun manfaati nuqtai nazaridan mutlaqo aralashtirib bo'lmaydi. Masalan, *non yedim* – *nonni yedim, ot mindim* – *otni mindim, kitob o'qidim* – *kitobni o'qidim* tarzida baravar ishlatilaverishi mumkin bo'lgani holda, *qo'l qo'ydi* – *qo'lni qo'ydi, bola ko'rdi* – *bolani ko'rdi, ot qo'ydi* – *otni qo'ydi, miltiq otdi* – *miltiqni otdi* birikmalarini bir-biridan farqlash kerak. Ularning har ikkila ko'rinishi ham tilda o'z holicha me'yorlashgan va boshqa-boshqa mazmunlarga ega. *-ni* o'rnida *-mi*

ning qo'llanishi adabiy til me'yorining buzilishi va shevachilik deb baholanishi kerak : *Top... top...topberasizlar-a d u b u l g' a m m i ?* (M.Mansurov). *Sh o i r r i kitobi; yemasang, z a h a r r i* ye misollaridagi *-ri* xususida ham shu gaplarni aytish to'g'ri bo'ladi.

Tushum kelishigining o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishiklari bilan sinonimiyasiga ham sinchkovlik bilan qarash lozim. *Mashinani mindim – mashinaga mindim* misolida ikkinchisi – jo'nalish kelishigining qo'llanishi, *eshakni mindim, otni mindim, mashinani mindim, qayiqni mindim* va, shu bilan birga, *eshakka mindim, otga mindim, mashinaga mindim, qayiqqa mindim* deyish mumkin bo'lgan holda, *poyezdni mindim, kemani mindim, paroxodni mindim, samolyotni mindim, vertalyotni mindim* deyish odat emas. Nega shunday? Fikrimizcha, tushum kelishigi ishlatilganda minish vositasini so'zlovchining o'zi boshqargan, jo'nalish kelishigi qo'llanganda esa bu vositani boshqa bir kishi boshqargan bo'lib chiqadi. Binobarin, harakatning bajarilishida bu kabi farqlar mavjud ekan, ularni kelishiklar o'rtasida sinonimiya deb tushunish to'g'ri bo'ladimi yoki ikki xil me'yoriy holat, debmi? Biz ikkinchisining tarafdorimiz.

Tushum va chiqish kelishiklari munosabati ham tahlil talab: *Nonni yeng – nondan yeng, nonni oling – nondan oling. Nonni yeng – uning hammasini yeng, nondan yeng – bir qismini yeng, nonni oling – turgan bitta nonni oling, nondan oling – turgan ko'p nondan bir qismini oling.* Demak, ularning har ikki ko'rnishini ham alohida mazmun ifoda etuvchi me'yoriy holat sifatida e'tirof etish mumkin.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi– *ga* o'zbek tilida *-ka, -qa, -g'a, -a, -na* singari bir qator fonetik va lahjaviy ko'rinishlarga ega. Ularning qo'llanilishi vazifaviy uslublar me'yori jihatidan farqlanadi. *-ga, -ka, -qa* adabiy tilning yozma va og'zaki shakllarida, *-g'a, -a, -na* esa badiiy uslubda ishlatiladi: *ukamga, maktabga / maktapka, qishloqqa, tufrog'ima, yo'lingg'a, ustina* kabi.

-ga ning *tomon, sari* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatga kirishishi yozma nutq uchun asosiy me'yor sanaladi: *Xorazm Jaloliddin*

xayolidek qiziq tush, / Ta'birga par bermasa na bir pari na bir qush, / Sodda Gu r l a n s a r i bor, kelar bir bosiq tovush : /"Ko'ngilni ko'targuvchi saboni ko'rmoq bo'lsang,/ Bor Amu b o'y l a r i g a, borgin do'stginam (O. Matjon).

So'zlashuv va badiiy uslublarda uning belgisiz qo'llanishiga me'yor sifatida qaraymiz: *maktab bordingmi* (ammo *uy bordingmi* emas). *M a k t a b b o r d i k, og'ir bo'lib qoldik daf'atan* (A. Oripov).

O'rin-payt kelishigi ham ish-harakatning bajarilish o'rni va paytini bildiruvchi vosita sifatida tilimizda uzoq davrlardan beri o'z vazifasini bajarib kelmoqda. «O'zbek tili stilistikasi» kitobida *-da* ning *-dan* va *orqali* ko'makchisi bilan sinonimik munosabatga kirishishi aytib o'tiladi va quyidagi misollar keltiriladi: *r a d i o -d a e'lon qildi – r a d i o o r q a l i e'lon qildi- r a d i o -d a n e'lon qildi*. Tushunishimizcha, ikkinchi va uchinchi holatda sinonimiya bor. Birinchisi esa og'zaki nutqdagi e'tiborsizlik natijasi. Ammo *qo'lda tarqatdi, qo'ldan tarqatdi, qo'l bilan tarqatdi* deyilganda sinonimiya kuzatiladi.

Mana bu misolda esa *-da* va *-dan* munosabatlarini va farqlarini anglash yana ham qiyin: *X o l a m n i k i d a n qolgan ro'molimni olib kelaman deb bu yoqqa chiqqan edi* (A.Majidiy). «Xolamnikida qolgan ro'molim»mi yoki «Xolamnikidan olib kelaman» mi? Birinchisi to'g'ri bo'lsa, *-dan* ning ishlatilishi noto'g'ri, ikkinchi fikr nazarda tutilgan bo'lsa, so'zlarning joylashish tartibi boshqacha bo'lishi lozim edi.

Ilmiy adabiyotlarda egalik qo'shimchalari *-(i)m, -(i)ng, -i, -(s)i, -(i)miz, -(i)ngiz* ekanligi ko'rsatilib, ularning variantlari ko'p emasligi aytiladi. Variantlarning ozligi esa ularning tilda me'yorlashishini osonlashtiradi. Bu o'rinda *bizning maktab, sizning uy* singari birikmalarda ham *-ning* tufayli anglashiladigan egalik mavjudligini e'tirof etgan holda, morfologik me'yor buzilganligini aytib o'tish lozim. Albatta, bu nutqiy, masalan, poetik talab bilan bo'ladi va uslubiy g'alizlik hisoblanmaydi. *Vatanim manim, maktabing sening, uying sening* birikmalari to'g'risida ham shu gapni aytish mumkin. Bu yerda ham poetik matn talabi bilan aniqllovchi-aniqlanmish o'zaro o'rin almashadi.

Prof. Yo.Tojiyevning «O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi» asari ham ot so'z turkumi doirasidagi me'yoriy holatlarni belgilashda ishonchli manba sanaladi. Masalan, birgina *-chi* affiksining *-furush, -soz, -kash, -kor, -boz, -paz, -shunos, -go'y, -xo'r, -dor, -navis, -parvar, -do'z, -bon, -xon, -parast* kabi qo'shimcha va affiksoylar bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkinligi, ular qaysi so'zlar qo'shilganda me'yoriy hisoblanishi yoki hisoblanmasligi semantik-uslubiy jihatdan boy faktik materiallar asosida ko'rsatib berilgan : *tuyachi – tuyakash – tuyabon, kirachi – kirakash, kemachi – kemakash, mehnatchi – mehnatkash, tilchi – tilshunos, qonunchi – qonunshunos, do'ppichi – do'ppifurush – do'ppido'z, holvachi – holvafurush, muqovachi – muqovaso, tunukachi – tunukasoz, somsachi – somsapaz, mantichi – mantipaz, maslahatchi – maslahatgo'y, qasidachi – qasidago'y, etikchi – etikdo'z* kabilar¹. Misollar tahlilidan kelib chiqib, sifat so'z turkumi doirasidagi grammatik birliklar anchagina me'yorlashganligini ayta olamiz. Ularda faqat qo'llanishdagi uslubiy farqlarni ajrata bilish lozim. Masalan, sifat yasovchi qo'shimchalarning asosiy qismi umumiste'moldagi birliklar bo'lib, barcha uslublarda ishlatilsa-da, *-dor, -kor, -mand, -omuz, -parast, -parvar, ba-, ser-, no-* lar adabiy tilda so'zlashuvchilar nutqida, *-iy, -viy, -gan, -simon, -on, -ik, -iv, -al, -shunos* affikslarining ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda bir muncha faolligi seziladi. Badiiy uslubda esa *-lik* qo'shimchasining *-liq, -lig', -luq, -lug'* kabi variantlari ajralib turadi². Binobarin, vazifaviy uslublar nuqtai nazaridan ular ana shu tarzda me'yorlashgan.

Sonlar o'zbek tilida ozchilikni tashkil qiladi (ular 23 ta). Shuning uchun ham bu sonlarning morfologik me'yori xususida so'z yuritish oson kechadi.

Lekin sonlarning ma'no va grammatik jihatdan farqlashga xizmat qiladigan *-ta, -ov, -ala, -lab, -larcha, -(i)nchi* kabi maxsus shakl yasovchi qo'shimchalar mavjudki, ularning sonlarga qo'shilishida o'z me'yorlari bo'lib,

¹ Tojiyev Yo. O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi. – Toshkent, 1987, 12-62-betlar

² Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand, 1992, 53-54-betlar

ana shu me'yoriy holatlarni bir-biriga aralashtirmaslik lozim bo'ladi. Masalan, *-ta* va *-(i)nchi* qo'shimchalari o'zbek tilidagi barcha sonlarga qo'shiladi va bu me'yor sanaladi. *-ov* qo'shimchasi *ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti* sonlariga qo'shiladi va jamlik ma'nosini bildiradi. *Bir* soniga qo'shilganda esa sonlik doirasida chiqib, olmoshga o'tadi¹. Uning boshqa sonlarga qo'shilishi me'yorning buzilishi sanaladi. *-ala* qo'shimchasi ham 2 dan 7 gacha bo'lgan sonlarga qo'shiladi. Qolgan holatlarda me'yor buziladi.

Sanoq sonlarga qo'shiladigan va chamani bildiradigan *-lab, -larcha, -tacha* qo'shimchalari ham odatda *o'n* dan boshlab *yuz, ming, million* kabi yirik miqdordagi sonlarga qo'shiladi². *Oltilab, oltilarcha, oltitacha, o'n birtacha, o'n birlab, o'n birlarcha* deyish o'zbek tilida odat emas. Chunki *bir* dan *o'n* gacha bo'lgan sonlarda aniqlik kuchli bo'lib, umumiylik, jamlash ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Olmoshlarning qo'llanilishi barcha vazifaviy uslublarga xos. Shu bilan birga, ularning biri o'rnida ikkinchisining qo'llanilishi ayrim uslubiy chegaralanishlarni, xosliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, ilmiy uslubda *men* o'rnida *biz* ishlatiladi va u kamtarlik alomati sanaladi : *Zero, har bir fikrimiz isboti uchun badiiy adabiyotdan ko'plab misollar keltirishga harakat qildik* yoki *M.N.Kojina morfologik sinonimlarning hammasini stilistik sinonim sifatida qarash mumkin emas demoqchi bo'lsa, biz unga qo'shilamiz* (R.Qo'ng'urov). Ilmiy uslubda *biz* so'zi kamtarlik ifodasi sifatida me'yor sanalsa, so'zlashuv va badiiy uslubda maqtanchoqlik, o'zini katta olish ma'nosida me'yor sanaladi : - *Ma, ich, amir, - dedi va kuldi. – Bilib qo'y, b i z d a y amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen* (O.Yoqubov).

Yirik so'z turkumlaridan sanaladigan fe'lning qo'llanishida me'yoriy holatlarni belgilash katta tadqiqotlarni talab qiladi. Bu o'rinda biz ishning hajmini hisobga olib, ayrim fe'l ko'rsatkichlari misolida me'yoriy

¹ O'zbek tili grammatikasi, 1 tom, 327-bet

² O'zbek tili grammatikasi, 1 tom, 324-bet

buzilishlarning yuz berishini va buning nutqda salbiy natijalarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib o'tamiz, xolos.

Nutqda, ayniqsa so'zlashuv jarayonida o'zaro farqlanmaydigan *-kaz* va *-qaz* qo'shimchalarini olib ko'raylik. «O'zbek tili grammatikasi» ning fe'lga bag'ishlangan qismida ham, A. G'ulomov, A. Tixonov, R. Qo'ng'urovlarning «O'zbek tili morfem lug'ati» da ham ular *-gaz* qo'shimchasining variantlari, fe'lning orttirma darajasini ko'rsatuvchi birliklar sifatida talqin qilinadi. Haqiqatdan ham shunday. Ammo ular bu vazifani alohida - alohida olingan so'zlarda bajaradi. *Ketkazmoq*, *bitkazmoq* deyilish mumkin bo'lgan holda *ketqazmoq*, *bitqazmoq* deyish me'yorning buzilishi sanaladi.

Shu o'rinda bir misol xarakterli hisoblanadi. Bu qo'shimchalar bir so'z o'zagiga qo'shilishi ham mumkin: *o'tkaz-o'tqaz* kabi. Ammo bu yuqoridagi fikrni inkor qilmaydi. Chunki ular bu yerda ham bir xil grammatik vazifani bajarmoqda. Ayni paytda, so'zlardagi ma'no ikki xil: *o'tkazmoq* - *elektr simlarini o'tkazmoq*, *o'tqazmoq* - *daraxt ko'chatlarini o'tqazmoq*. Bu ikki xillik aslida *-gaz* qo'shimchasining yuqoridagi variantlari bilan emas, balki so'z o'zagidagi ma'nolar bilan bog'liq. Omonimlik holatni yuzaga keltirgan *o't* so'zi birinchi holatda o'tish (o' yumshoq, til oldi), *o'tirtirish/o'tirg'izish* (o' qattiq, til orqa) harakatlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgandir. *O'* tovushining ikki xil talaffuzi nafaqat ma'noning, shu bilan birga, uning ishtirokidagi so'zga qo'shiladigan qo'shimchaning ham farqlanishiga olib kelgan. Ana shuning uchun ham ularni farqlamasdan ishlatish ma'noning, binobarin, me'yorning buzilishiga olib keladi.

«Ravishning asosiy belgisi uning o'zgarmasligidir,- deyiladi «O'zbek tili grammatikasi»da,- ya'ni ravish biror so'z bilan bog'lanib, birikma hosil qilganda, o'z formasini o'zgartirmaydi, hyech qanday so'z o'zgartuvchi affiks olmaydi»¹.

¹ O'zbek tili grammatikasi, 1 tom, 528-bet

Ravishlardagi ana shu o'zgarmaslik uning qo'llanishidagi uslubiy xilma-xillik bo'lishini chegaralaydi. Shu bilan birga, ularning nutq jarayonidagi me'yorlashishini, turg'unlashishini osonlashtiradi.

Shunga qaramasdan, ayrim misollar yordamida ravish so'z turkumiga oid so'zlarda ham me'yor muammolari mavjudligini kuzatish mumkin. Chunonchi fors-tojik tilidan kirib kelgan *–ona* qo'shimchasining ishlatilishi misolida ana shu masala mavjud. Bu qo'shimchaning o'zbek tilidagi *–lar* va *–chasiga* qo'shimchalariga teng kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd qilib o'tilgan¹. Misol: *ayyorona – ayyorlarcha – ayyorcha – ayyorchasiga, beadabona – beadablarcha, birodarona – birodarlarcha, bahodirona – bahodirlarcha, botirona – botirlarcha – botirchasiga, go'dakona – go'daklarcha – go'dakchasiga, do'stona – do'stlarcha – do'stchasiga, zolimona – zolimlarcha, iblisona – iblischasiga – iblislarcha, mag'rurona – mag'rurlarcha, mardona – mardlarcha – mardchasiga, mastona – mastcha, mag'rurona – mag'rurchasiga, mohirona – mohirlarcha – mohirchasiga, pahlavonona – pahlavonlarcha, tajavvuzkorona – tajavvuzkorlarcha, firibgar – firibgarlarcha – firibgarchasiga, faqirona – faqirlarcha, xoinona – xoinlarcha, qahramonona – qahramonlarcha – qahramonchasiga* kabi variantlar tilimizda yashab kelayotganligi imlo lug'atlarda qayd etilgan. Ammo *adibona, badbaxtona, betarafona, donishmandona, dilbarona, dilovarona, devkorona, johilona, jinoyatkorona, jasurona, zohidona, zaifona, ig'vogarona, isyonkorona, kamtarona, lutfkorona, muloyimona, ma'sumona, majnunona, muzaffarona, makkorona, mutakabburona, mug'ombirona, ma'yusona, namoyishkorona, ojizona, odilona, oshkorona, oqilona, payg'ambarona, razilona, riyokorona, sitamkorona, san'atkorona, tashabbuskorona, takabburona, fidokorona, xoloskorona, xiyonatkorona, xolisona, ehtiyotkorona, g'oyibona, g'olibona, g'aribona* kabi so'zlarga *–larcha, –chasiga* qo'shimchalarining qo'shilishini o'zbek tili va imlo va morfem lug'atlarida uchramaydi. Bundan ana shu so'zlar doirasida ular sinonim emas ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Faqatgina shu narsani

¹ O'zbek tili grammatikasi, 1 tom, 532-bet

ta'kidlash zarur bo'ladiki, misollar tahlilida bu uch qo'shimcha sinonimiyasida nutqiy me'yor asosiy o'ringa chiqishi ma'lum bo'lib qoladi.

Boshqacha aytganda, bu so'zlarning deyarlik barchasiga, faqatgina *oshkor* va *g'oyib* so'zlarini istisno qilgan holda, *-larcha* qo'shimchasini qo'shish to'g'ri bo'ladi va ularning ishlatilishini me'yor hisoblash mumkin.

Shunday qilib, yuqorida bildirilgan mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, tilimiz morfologik shakllarining so'zlardagi yasalish, shakl hosil qilish va o'zaro grammatik munosabatlarga kirishish imkoniyatining kengligi tabiiy ravishda ayrim me'yoriy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

2.2. Sintaktik birliklarning me'yoriy xususiyatlari

Sintaksis doirasida me'yorning amal qilinishi deganda, avvalo, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan nutqni ko'z oldimizga keltiramiz. Grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishlik gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro mazmuniy muvofiq kelishiga – valentligiga bog'liq bo'ladi.

Bu xususiyat, ayniqsa so'z birikmalariga tegishli bo'lib, ular tarkibidagi semantik va grammatik aloqaning kuchliligi, ulardagi a'zolar yaxlit holda gap tarkibida paradigma hosil qilishi ana shu a'zolar o'rtasidagi aloqalarning turg'unligini, binobarin, me'yorning muntazamligini taqozo qiladi.

Ana shu muntazamlilik tilimiz boyligining turg'un birikmalar deb ataladigan qismida mavjud va ular asrlar davomida tilimizda deyarlik o'zgarishga uchramasdan *abjag'ini chiqarmoq, avjiga minmoq, avzoyi buzilmoq, adabini yemoq, adi-badi aytishmoq, amalga oshirmoq, asabga tegmoq* tarzida qo'llanilib kelinmoqda.

Shuni ham esdan chiqarmasligimiz kerakki, ular ham o'rni bilan o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Badiiy nutq va so'zlashuv nutqida shunday holatlarga duch kelamiz. Mas., badiiy nutqda muallifni tilda mavjud bo'lgan turg'un birikmaning aynan shu holati qanoatlantirmaydi, deb hisoblaylik. Shunday paytda u o'z fikri yoki hissiyotini to'laroq ifoda etish uchun birikmani qisman o'zgartirishlarga uchratib ishlatadi yoki mavjud qolip asosida yangilarini

yaratadi. «Odatda, - deydi A.Mamatov. – tilda mavjud frazeologik birliklar obrazi asosida yaratilgan frazeologik xarakterdagi soʻz birikmalarida norma doirasidagi frazeologizmlarning strukturasi va uning umumiy komponentlari saqlanib qoladi. Shuningdek, asl frazeologik birlikning umumiy maʼnosi ham okkazional variantda oʻz ifodasini topadi»¹. Shundan soʻng ular qiyoslanadi: meʼyoriy variant – muallif varianti : *xotin deb qoʻynimga solganim ilon boʻlib chiqdi* – *bulbul deb qafasga solganim olaqargʻa boʻlib chiqdi; bildim dedim tutildim, bilmadim dedim qutuldim* – *qatiq ichgan qutuldi, ayron ichgan tutildi; tili qichimoq* – *tilini burga chaqmoq; janjal boshlagan Turdali, kaltak yegan Berdali* – *aravani ot tortarkan-u, it hansirarkan; jonim-jonim deb jonini olmoq* – *boshini qashlab turib qorniga mushtlamoq* kabi.

Bu holatlarni grammatik meʼyorning buzilishi deb boʻlmaydi. Demak, soʻz birikmalaridagi meʼyoriy oʻzgarishlarni turgʻun birikmalar tarkibidan axtarish toʻgʻri emas. Ayni paytda, yuqoridagi oʻzgarishlarni frazeologik meʼyorning buzilishi deb qarashga ham shoshilmaslik kerak. Chunki uni qoʻllanish jarayonining oʻzi belgilab beradi. Agar tavsiya etilgan, yaratilgan yangi variant nutqda erish tuyulsa, muomalada ommalashmasdan, lugʻatga kirmasdan qolib ketaveradi. Binobarin, tilimiz meʼyoriy buzilishdan saqlanib qoladi. Mabodo qabul qilinib, ommalashsa, uni meʼyorlashdi deb hisoblashga asos paydo boʻladi.

Erkin soʻz birikmalarining bitishuvli, boshqaruvli, moslashuvli shakllari mavjud. Ular orasida bitishuvli birikmalar meʼyorga munosabati bilan ajralib turadi. Ot+ot tipidagi birikmalarni olib qaraylik : *kumush qoshiq, movut chakmon, chilvir belbogʻ, zar doʻppi, gʻisht devor* kabi. Bu birikmalar ongimizda *kumush (metall)dan yasalgan qoshiq, movut (material)dan yasalgan chakmon, chilvir (arqon)dan boʻlgan belbogʻ, zardan tikilgan doʻppi, gʻishtdan qurilgan devor* tarzida shakllanadi. Ammo ularni aynan shu tarzda qoʻllash

¹ M a m a t o v A.E. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991, 266-267-betlar.

me'yor sanalmaydi. Tildagi tejamkorlik, qisqalikka intilish qoidalari ularni dastlab qo'llagan shakllarda aytish va yozishni taqozo qiladi.

Nisbiy sifat + ot tipidagi birikmalar orasida ularning yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi – *li* qo'shimchali shakllari mavjud: *mazali ovqat, aqlli odam, kulgili holat, g'ayratli yigit* kabi. Bu birikmalarning aniqlovchi qismi ikki a'zodan iborat bo'lgan ko'rinishlari ham uchraydi: *o'tkir tig'li pichoq, qora ko'zli bola, jigar rangli sumka, o'ta aqlli odam, juda g'ayratli ayol, nihoyatda kuchli shamol* singari. Ularning bir qismini belgisiz – *o'tkir tig' pichoq, qora ko'z bola, jigar rang sumka* tarzida qo'llash mumkin bo'lgani holda, ikkinchi qismini bunday qo'llash mumkin bo'lmaydi, me'yor buziladi.

Shuni ham aytish kerakki, belgili-belgisiz holatlarning nutqda o'zaro o'rin almashinib qo'llanishi grammatik me'yor nuqtai nazardan mumkin bo'lsa-da, uslubiy me'yor jihatdan ular bir-biridan farqlanadi. «O'zbek tili grammatikasi» da bu fikrni tasdiqlovchi bir tahlil keltirilgan: *qora ko'zli (bola)* umuman bolaning ko'zi qora, lekin *qora ko'z (bola)* birikmasi o'zaro jipslashganda, rangni emas, butun bir tushuncha – go'zallikning belgisini ifodalovchi qo'shma so'zdir¹. Bu tahlilni boshqa misollar asosida ham davom ettirish mumkin.

Boshqaruvli va moslashuvli birikmalarda ham belgili va belgisiz holatlarga duch kelamizki, ularga grammatik me'yor qoidalri asosida munosabat bildirish mumkin. Masalan, jo'nalish kelishigi uchun asosan belgili holat me'yor sanaladi: *vatanga muhabbat, do'stga ishonch, xo'jalikka rahbar, oilaga bosh* kabi. Faqat ayrim holatlardagina belgisiz qo'llanishi mumkin: *Kunlarimiz jilg'alarday o'tdilar oqib, / M a k t a b b o r d i k – og'ir bo'lib qoldik daf'atan* (A. Oripov).

Mana shunday belgisiz qo'llanish qaratqich va tushum kelishiklari uchun ham me'yor sanalishi tilimizda ko'p uchraydi: *maktab bog'i, sinf jurnali, kitob varag'i, orden lentasi, kitob o'qimoq, kino ko'rmoq, mol boqmoq, sigir sog'moq, paxta termok* kabi. Yana: *Qarshingda turibdi u m- r i m bir kuni* (J.

¹ O'zbek tili grammatikasi, 1 tom – Toshkent, 1975, 36-bet

Kamol), *Elga sabr bardoshdan bo'lak n a r s a ber* (H. Xudoyberdiyeva). Ammo yuqoridagi singari belgisiz shakllar o'rin-payt va chiqish kelishikli birikmalar uchun me'yor sanalmaydi.

So'zlarni o'zaro grammatik munosabatga kirishtiruvchi kelishik qo'shimchalarining, masalan tushum kelishigining – *i (n)*, jo'nalish kelishigining – *a*, *-na*, *-qa*, *-g'a*, chiqish kelishigining – *dan*, qaratqich kelishigining – *(i) m*, *- n*, *- nung*, *- ing* shakllari ham mavjud va ularning nutqda qo'llanishi adabiy til nuqtai nazaridan me'yorning buzilishi sanaladi. Ammo vazifaviy uslublar nuqtai nazaridan bunday emas. Ular badiiy va so'zlashuv uslublarida ishlatilishi mumkin.

Ikkinchi navbatda esa so'z o'zgartuvchilar yoki yordamchi so'zlar shaklidagi grammatik vositalarning o'z o'rnida ishlatilishi muhim sanaladi. Egalik qo'shimchalarini olib ko'raylik. Bu qo'shimchalarni olgan so'zlar odatda qaralmish sanaladi hamda grammatik jihatdan shakllangan-shakllanmaganligidan qat'iy nazar, uning oldida qaratqich bo'ladi: *mening ukam*, *sening ukang*, *uning ukasi*, *ukam*, *ukang*, *ukasi* kabi. Bunday holatlarda me'yorning buzilishi kuzatilmaydi.

Egalikning ko'plik shaklda ifodalanishi ham yuqorida ta'kidlaganimiz aniqlovchi-aniqlanmish birikuvi qoidasiga muvofiq kelishi lozim: *bizning sevgimiz*, *sizning sevgingiz*, *ularning sevgisi* kabi. Ammo nutqda hamma vaqt ham bunday bo'lavermaydi. Ular *bizning uy*, *bizning mahalla*, *bizning maktab* tarzida qo'llanishi, egalik qo'shimchasi bajaradigan vazifani qaratqich kelishigi ko'rsatkichi o'z zimmasiga olishi ham mumkin va bunda grammatik me'yor buzilgan hisoblanmaydi. Hatto *bizning uy*, *bizning mahalla* shaklida qo'llanishlar so'zlashuv nutqida ommalashib ketgan. Ushbu birikmalarining aniqlovchi qismi nutqda qo'llanilmaganda esa ularni egalik qo'shimchalarisiz ishlatish mumkin bo'lmaydi.

So'z birikmalarining shakllanishiga xizmat qiluvchi grammatik vositalar orasida kelishik qo'shimchalarining o'zni alohida ekanligi ma'lum. Bu o'rinda

faqat ularning ko'makchilar bilan sinonimik munosabatidagi me'yoriy holatlarga to'xtalamiz.

O'zbek tilida kelishiklar va yordamchi so'zlar tadqiqiga oid kuzatishlarga tayanib aytish mumkinki, to'rtta kelishik qo'shimchasi ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishadi:

- *ga / sari (dushmanga yuzlandi / dushman sari yuzlandi, ko'chaga otlandi / ko'cha sari otlandi)*, - *ga /uzra (olamga chiqqanda quyosh / olam uzra chiqqanda quyosh)*, - *ga /tomon (qizga qaradi / qiz tomon qaradi, unga burildi / u tomon burildi, o'ziga tortdi / o'zi tomon tortdi)*, - *ga /bilan (qahqahaga to'ldi, qahqaha bilan to'ldi)*, - *ga /uchun (ukamga oldim / ukam uchun oldim)* kabi. Mana shu tarzda – **ni** qo'shimchasi *bilan, haqda*, - **da** qo'shimchasi *bo'ylab, ichra, bilan*, - **dan** qo'shimchasi *sababli, orqali, tufayli, osha, bo'ylab, uzra, ichra, bo'yicha, to'g'risida, bilan, uchun* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Ular bir matnda biri ikkinchisining o'rnini bosa olishi, ikkinchi bir holatda ana shu vazifani to'liq bajara olmasligi mumkin. Bu masalaning uslubiy tomonlari, albatta. Gapda so'zlarning o'zaro birikishiga xizmat qiladigan grammatik vosita sifatida me'yoriy talablarga javob berish-bermaslik esa boshqa masaladir.

Demak o'zbek tili sintaktik me'yorlarini belgilashda gaplarning erkin tartibini nazariy asos qilib olsak to'g'ri bo'ladi. Chunki, *Samarqand – viloyatimizdagi yirik shahar* yoki *Viloyatimizdagi yirik shahar - Samarqand* gaplarida yoki *Men qishlog'imizdan kecha keldim / Men kecha qishlog'imizdan keldim / Qishlog'imizdan kecha men keldim* gaplarida so'zlar va ularning o'rin almashinishi mazmunni o'zgartirib yuborgan emas. Shunday ekan bu yerda grammatik me'yor buzilgan deb aytib ham bo'lmaydi. Sodir bo'lgan ma'lum matniy o'zgarishlar esa uslubga tegishlidir.

Tilimizda gaplar tugallangan bir fikrni ifoda etishi, predikativlik xususiyatiga ega bo'lishi bilan bir qatorda ular ma'lum grammatik shakllar va ko'rinishlarni ham oladi. Shu ma'noda ular bir tarkibli va ikki tarkibli singari turlarga ajratiladi. Gapning bu shakllari nutqda, tabiiyki, o'ziga mos imlo va

talaffuz me'yorlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bu me'yorlar garchi bir gap doirasida bo'lsa ham bir-biriga o'xshamasligi mumkin.

Modomiki, gapda so'zlarning joylashish tartibi haqida mulohaza yuritilayotgan ekan, biz odatda to'laqonli grammatik shakllanish namunasi deb hisoblaydigan ikki tarkibli gaplarni tahlil materialini qilib olsak, to'g'ri bo'ladi.

Gapning bosh bo'lagi sanaladigan ega o'ziga oid so'zlar bilan gapning boshida kelishi, kesim esa xuddi shunday so'zlar bilan gapning oxirida kelishi, har qaysi bosh bo'lakka oid so'zlar esa ulardan oldin qo'llanilishi o'zbek tili uchun odatdagi to'g'ri tartib, ya'ni me'yor ekanligi tilshunosligimizda allaqachon ma'lum. Demak, ana shu tartibning buzilishini me'yorning buzilishi deb baholaymiz. Ayrim misollar keltirish bilan cheklanamiz: *Gazeta o'z savollariga qoniqarli javob topolmaydi millat ichidan, It - insonning do'sti – Insonning do'sti – it. Men gado Xonzodaga ko'nglimni berdim, do'stlarim (qo'shiqdan), O'lmoq uchun sen tug'ilgan emassan, /Zax tuproqning bag'riga sen uvolsan* (H. Olimjon). Keyingi ikki misoldagi, ayniqsa uning birinchisidagi *gado* so'zining kimga qaratilganini aniqlash uchun alohida diqqat yoki intonasiya zarur bo'ladi.

Grammatik me'yorlarni belgilash jarayonida mantiqiy fikrlash va uning natijasida yuzaga keladigan grammatik qurilishlar, shakllar o'rtasidagi munosabat masalasi ham muhim. Chunki ularning o'rtasida ajratilib bo'lmaydigan bog'liqlik mavjud. Shu bilan birga, mantiq va til qonuniyatlariga ko'ra ularni aynan bir narsa deb ham bo'lmaydi. Tafakkurda umumiy tarzda, fikr egasining ifoda maqsadi va niyatidan kelib chiqib, yuzaga kelgan hosila mulohaza nutqda turli grammatik shakllarda ifodalanishi mumkin. Masalan, *oling, olib turing, olib o'tiring, ovqatga qarang, ovqatdan oling, ovqatni oling, boshlang, boshladik, dasturxonga qarang, dasturxonga qarab o'tiring, qani-qani; qani, mehmon; marhamat, marhamat qiling, qolmasin, shu qolib nima bo'ladi, oling mehmon, yeb o'tiring, yeb turing, olib turing* va hokazo shakllardagi grammatik qurilmalar so'zlashuv uslubida me'yor sanaladi va bitta «yemoq» semasi atrofida birlashadi. Ayni paytda, shu ma'noni beradigan

ovqatdan iste'mol qilib turing, mehmon; ovqatdan tanavvul qilib turing, mehmon; iste'mol qiling, tanavvul qiling singari qurilmalar ham garchi «yemoq» ma'nosini bersa-da, so'zlashuv nutqi uchun me'yor hisoblanmaydi.

Sintaktik birikmalarning har biri matnda alohida ma'no nozikliklarini, uslubiy farqlanishlarni hosil qilishi ham mumkin. U yana o'z navbatida har bir holatdan kelib chiqadigan grammatik me'yorlar haqida mulohaza yuritishimizga imkon beradi.

Agar sintaktik me'yor hajmini ana shu qamrov doirasida tasavvur qiladigan bo'lsak, alohida olingan gap, kichik yoki katta matn tarkibidagi til birliklarini ularga sinonim bo'lgan boshqa birliklar bilan yoki o'zaro o'rnini almashtirib qo'llashning mumkinligi nutq jarayonida katta uslubiy imkoniyatlarni keltirib chiqarish bilan birga, ma'lum darajada me'yoriy buzilishlarni paydo qilishi mumkinligi ham aniq bo'lib qoladi.

Shuning uchun ham har bir tilning o'ziga xos me'yori mavjudligi haqidagi fikr, ayniqsa, sintaktik me'yor bilan aloqador bo'ladi. Darhaqiqat, har bir milliy tildagi gap qurilishi o'ziga xos tarzda shakllanadi, jumladan o'zbek tilida ham.

Nutq uchun faqat ma'lum so'zlardagi turlicha ma'nolarni bilish emas, balki ulardan muomala jarayonida foydalana olish, munosabatlarning, fikr-mulohazalar, hissiyotlarning eng nozik jihatlarini ham ifodalab berishga xizmat qildirish muhim sanaladi. Nutqni shakllantirishdagi piravord maqsad ham ana shu. Ammo ko'zda tutilgan matnni shakllantirish uchun so'z va uning ma'nolarini bilishning o'zigina yetarli bo'lmaydi. So'zlovchi yoki yozuvchi niyati ana shu omillar bilan bir qatorda til birliklarining matnda o'zaro grammatik aloqasini ta'minlash tufayligina amalga oshadi. Boshqacha aytganda, nutq jarayonidagi til birliklariaro sintaktik munosabat fikrning to'laqonli ifodasida katta mavqeyni egallaydi. Masala ana shu tarzda qo'yilar ekan, tilimiz rivojida sintaktik me'yorlarni belgilash ham muhim o'rin tutadi.

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra bo'linishlarida me'yoriy mustahkamlik turlicha ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, darak gaplarda shakl va mazmun munosabati zich bog'liqlikda bo'ladi, «sintaktik darak ma'nosi gapning sintaktik

darak shakli orqali ifodalanadi»¹. Lekin so'roq gaplardagi mazmuniy ifoda doirasining kengligi, ya'ni bir sintaktik shakldagi gapning matnda har xil ma'nolarni ifodalashi mumkinligi bu gaplarning turli nutqiy vaziyatlardagi me'yoriy holatlarni belgilab olishga zarurat tug'diradi.

Tilimizda, ohang garchi u nutqning barcha ko'rinishlarida yaqqol bilinib turadigan vosita sanalmasa ham, so'zlashuv jarayonida ahamiyati juda sezilib qoladi. Gap shakliga sirtidan qarab bu darak, so'roq yoki undov gap deb dastlabki yuzaki bahoni beramiz. Ammo yuqoridagi singari so'roq gaplardagi maslahat, iltimos, yalinish, ko'ndirishga harakat qilish, avrash, tashviqot qilish singari ma'nolarni gap tarkibidagi hyech bir grammatik yoki tinish belgi ifoda eta olmaydi. Bu masalani faqat ohang hal qilishi mumkin.

Ushbu gaplarni qiyoslaylik: *Qo'y, menga u kunlarni eslatma! Menga u kunlarni eslatma, qo'y! Qo'ygin, menga u kunlarni eslatmagin! Menga u kunlarni eslatmagin, qo'ygin! Qo'ygin, u kunlarni eslatma menga! Qo'ygil, u kunlarni eslatma menga!* Bu gaplar ham xuddi yuqoridagi so'roq gaplarda kuzatilgani kabi, garchi umumiy ma'noda o'tgan voqyea-hodisalarni eslatmaslikka da'vat qiliyotgan bo'lsa-da, bu da'vat har bir gapda ohang ko'magida so'zlovchi maqsadiga mos tarzda ifoda etilmoqda, vazifaviy uslublar jihatidan ham farqlanmoqda.

Nutqda ba'zan shunday bo'ladiki, bir ma'no atrofida turlicha ohanglar, aytaylik, har bir kishi nutqida, o'ziga xos tarzda yuzaga kelishi, ma'nolari vaziyatga qarab kuchli va kuchsiz, ta'sirli va betaraf hamda befarq ifodalanishi mumkin.

Demak, nutq jarayonida ohangga e'tibor berish me'yorga e'tibor berishning asosiy sharti bo'lib qoladi.

Sintaktik uslubiyat doirasida ega va kesim mosligi hamda uning me'yoriy munosabati xususidagi mulohazalar ham muhim o'rin tutadi. Nutqimizda faol ishlatiladigan bir gap misolida me'yoriy munosabatni tahlil qilishga harakat

¹ *Mahmudov N., Nurm onov A.* O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent, 1995, 49-bet

qilib ko'ramiz: *dadam keldi* – *dadamlar keldi* – *dadam keldilar* – *dadamlar keldilar*. Sonda moslashuvdagi sezilmas darajadagi nomuvofiqlikni hisobga olmaganda, ularning hych birida grammatik munosabat buzilgan deb bo'lmaydi. Darvoqye, bu qurilmalarda ega va kesim mosligiga nutqiy zarurat ham yo'q. Odatda o'zbek tili iste'molchilari ularning ana shu ko'rinishlarining barchasidan ham foydalanaverishadi. Shunday ekan, ularda grammatik me'yor buzilmagan deb bimalol aytish mumkin. Ammo uslubiy me'yor nuqtai nazaridan bunday deb bo'lmaydi.

Uslub nuqtai nazaridan har birimizning nutqimizda ularning o'z o'rni va bahosi bor: *dadam keldi* – shunchaki xabar, *dadamlar keldi* – aytaylik, o'zining va turmush o'rtog'ining (har ikkalasining) dadasi kelganligini haqida xabar, *dadam keldilar* – xabar bilan birgalikda o'z otasiga bo'lgan hurmat ifodasi, *dadamlar keldilar* – grammatik me'yorning saqlangani, ammo uslubiy me'yorning bir holatda – bitta ota nazarda tutilgan holatida buzilishi. Shunday ekan, nutq uchun eng ma'qul variant sifatida *dadam keldilar* tanlanishi ma'qul bo'ladi.

Masalan, maqollarning buyruq gap shaklida berilishi (*Avval o'yla, keyin so'yla*) me'yoriy holat, so'roq va undov gaplar shaklida kelishi esa tilimiz uchun xos xususiyat emas. Gapda ega ko'proq otlashgan so'z yoki so'z birikmalari orqali ifodalanadi va u nechta so'z va so'z birikmalari bilan ifodalansa, kesim ham shuncha so'zli birikma orqali ifodalanadi. (*Oz so'z – soz so'z, yoz mevasi – qish xazinasi*). Izohlovchilar uchramaydi. Ko'p o'rinlarda so'z qaratqich, tushum va boshqa kelishiklar bilan shakllanishi lozim bo'lganda, belgisiz ishlatiladi.

Bir tarkibli gaplarning shaxsi umumlashgan turi maqollar sintaksisi uchun asosiy me'yoriy xususiyat sanaladi (*Olim bo'lsang olam seniki; Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar* kabi). Maqollarning bog'lovchisiz qo'shma gap shaklida kelishini ham ularning muhim me'yoriy belgilari deb hisoblash lozim (*Qo'shning tinch – sen tinch, Gap ko'p – ko'mir oz, Rahmat olgan omondir, la'nat olgan yomondir* singari).

Shu narsa ham muhimki, bu tipdagi gaplarda qiyoslash, zidlash mazmuni, parallelizm yorqin sezilib turadi. Soʻz tartibi esa turgʻun. *Qoʻshning tinch – sen tinch* tartibida shakllangan gapni *Sen tinch – qoʻshning tinch*, deb oʻzgartirish maqsadga muvofiq emas. Demak, komponentlar turgʻunligi bunday gaplar uchun meʼyoriy holat hisoblanadi.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, oʻzbek tili sintaksisi doirasida meʼyoriy chegaralarni belgilash nihoyatda murakkab vazifa. Tildagi har bir sintaktik kategoriya, har bir sintaktik birlik matn xususiyatiga qarab, vazifaviy uslublar doirasida qoʻllanishiga koʻra oʻziga xos mazmun va shakl kasb etishi mumkin. Demak, kelajakda sintaktik meʼyorlar har bir uslub, ularning alohida tur va janrlari misolida batafsil tadqiq etilishi lozim boʻladi.

UMUMIY XULOSALAR

Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning turli tillarda turlicha nomlanishidan qat'iy nazar, mana shu jarayonda u insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro ijtimoiy munosabat - muomala vositasi, materiali bo'lib qolaveradi. Ammo til muomala vositasiga aylandimi, uning tabiiy ravishda imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi. Inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi.

Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi. Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir.

Me'yor - til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda ana shu tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik aslo mumkin bo'lmaydi. O'z ona tili - barcha o'ziga xosligi bilan shakllangan tili bo'lgani uchun ham u millat sanaladi. Shunday ekan til tarixini, uning me'yoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, ko'lamini millat tarixidan ajratib olib o'rganib bo'lmaydi.

Ana shu ma'noda me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Inson tafakkurining borliqni idrok etishi juda murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon ekanligi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning tilda tegishli atamalar bilan nomlanishi insonning fikrlash jarayonida ko'maklashishi barchamizga ayon. Bir xil predmet, narsa va hodisaning turli tillarda turlicha nom olishi esa tilning ijtimoiy-tarixiy-milliy hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu nomlanishlarning har bir holatda o'ziga xos tarzda me'yor ekanligini ham ko'rsatib turadi.

Adabiy tilimizning yashovchanligini, obro'sini, martabasini saqlab qolish esa unda belgilangan me'yorlarga qat'iy rioya qilishni taqozo etadi. Chunki zamonlar silsilasida toblangan o'zbek tili, bir tomondan, o'z maromida sayqal topib, silliqlashib borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek tilshunosligi ham fan sifatida ko'plab olimlarimizning sa'y harakatlari tufayli o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. O'zbek adabiy tili me'yorlari xususida to'plangan bilim va tajribalarga tayanib yana shuni aytish mumkinki, uning umumiy va konkret ko'rinishlari mavjud. Umumiy tarzda uni og'zaki va yozma nutq me'yorlariga ajratamiz. O'z navbatida, yozma adabiy nutq me'yori, yozma adabiy til me'yori va yozma uslub me'yoriga, og'zaki nutq me'yori og'zaki adabiy til, og'zaki uslub me'yoriga bo'linadi. Konkret tarzda esa, tilimizda leksik - semantik, talaffuz, grafik, punktuasion, fonetik, grammatik, so'z yasalishi, orfografik va uslubiy me'yorlar mavjudligini qayd qilamiz.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'layapti. Bu holatni asosan fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'iy nazar, tilshunoslar ularni qo'llashdagi har bir holatga o'z munosabatlarini bildirib borishlari, yuqorida aytib o'tganimizdek, me'yor sifatida tavsiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligini ilmiy asoslab berishlari zarur bo'ladi.

O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bir tomondan qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda vazifaviy-uslubiy chegaralinish ham sezilib turadi. Bu xususiyatlar so'z yasovchi hamda ko'plik, egalik, kelishik, daraja, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifoda etuvchi affikslarning nutqdagi ishtirokida, yordamchi so'zlarning turlicha ko'rinishlari va variantlarida

namoyon bo'ladi. Ularning ma'lum qismida badiiy uslubga xoslanganlik mavjud.

Sintaksisda til birliklarini mazmunga mos ravishda turli kombinasiyalarda qo'llash mumkinligi ularning uslubiy imkoniyatlari ham naqadar kengligidan dalolat beradi. Ta'kidlash o'rinliki, prozaik asarlar sintaksisi hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yorlarini o'zida aks ettiradi. Buni ayniqsa gap bo'laklarining nutqda joylashuvida kuzatamiz. Ammo poetik nutq sintaksisi boshqacha. She'riy nutqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan inversiya tufayli matnda ko'plab sintaktik qurilishlar majmui vujudga keladi.

O'zbek adabiy tilining qanchalik me'yorga keltirilganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zR Oliy Majlisi 1X sessiyasida so'zlangan nutq, 1997 yil 29 avgust.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari: ma'naviy qadriyatlar va milliy mulkni anglashning tiklanishi. – T.: O'zbekiston, 1999.
4. Begmatov E. O'zbek nutqi madaniyati masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1980, № 4.
5. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983.
6. Begmatov E.A., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi: I qism. –T.: Navro'z, 1997.- 92 b.
7. Begmatov E.A., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi: II qism. –T.: Navro'z, 1998.- 132 b.
8. Begmatov E.A., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi: III qism. –T. : Navro'z , 2000.- 138 b.
9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - T.: Fan, 2007.- 123 b.
10. Yo'ldoshev M, Yodgorov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. -T.: Fan, 2007.- 112 b.
11. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi.-_Samarqand: Zarafshon, 1992.
12. Mamatov A. E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.- Toshkent, 1991.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995.

14. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. -T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. - 188 b.
15. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent, 1984.
16. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
17. Muhammedov S. O'zbek tili funksional stillarini belgilash to'g'risida // O'zbek tili va adabiyoti, 1983, №4.
18. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
19. Tursunov U., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1982.
20. Tursunov U., O'rinboyev B., Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1995.
21. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.
22. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tilining leksik normalari // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami - Toshkent: Fan, 1973.
23. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983.
24. O'zbek tili grammatikasi. 1 va P tomlar. – Toshkent, 1975, 1976.
25. O'rinboyev B. Funksional uslubiyat va uning mohiyati. – Toshkent: Fan, 1992.
26. O'rinboyev B., O'rinboyeva D. O'zbek tilining so'zlashuv uslubi. – Toshkent, 1991.
27. Qilichyev E., Qilichyev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2001.
28. Qurbonov T.I. Hozirgi o'zbek adabiy tilining publisistik uslubi. ND – Toshkent, 1987.
29. Qo'ng'urov R. Sifat stilistikasi // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. –Samarqand, 1982.

30. Qo'ng'urov R. Olmosh stilistikasiga oid ayrim mulohazalar// O'zbek tili stilistikasidan kuzatishlar. –Samarqand, 1981.

31. Qo'ng'urov R.Q., Karimov S.A, Qurbonov T.I. O'zbek tilining funksional stillari. – Samarqand, 1984.

M U N D A R I J A:

Ishning umumiy tavsifi.....	3 – 6
 I bob. Me'yor hodisasining lingvistik tushuncha ekanligi.....	7 – 25
1.1. Til va nutqning ijtimoiy hodisa ekanligi.....	7 – 12
1.2. Adabiy til va adabiy me'yor.....	12 – 17
1.3. Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari. Imlo va talaffuz me'yorlari.....	17 – 19
1.4. Leksik me'yor.....	19 – 25
 II bob. Grammatik me'yor.....	26 – 47
2.1. Morfologik me'yor tushunchasi.....	26 – 38
2.2. Sintaktik birliklarninig me'yoriy xususiyatlari.....	38 – 47
 Umumiy xulosalar.....	48 – 50
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	51 – 53